NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan №21-22 (759-760), 2023-yil 15-noyabr facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATINING 65 YILLIGIGA

# KOMBINAT YANGI TARAQQIYOT YO‘LIDA



**Quvondiq SANAQULOV,**
**Navoiy kon-metallurgiya kombinati Bosh direktori**

**Aziz hamkasblar!**
**Avvalo siz, konchi va metallurglar, energetik va quruvchilar, mashinasozlar va loyihachilar, korxonamizda mehnat qilayotgan barcha kasb egalarini, qadrli faxriylarimiz va shijoatli yoshlarimizni Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganligining 65 yilligi munosabati bilan qizg‘in tabriklayman.**

Har bir davr o‘z qahramonlarini yaratadi. Odamning ilk bor kosmosga parvozi, Oy sathiga qadam qo‘yishi ilm-fan, insoniyat aql-idroki, tafakkur olamining beqiyos ifodasi, haqiqiy qahramonlik va jasorat namunasi sifatida tarix sahifalarida muhrlangan. Men qahramonlik tushunchasini kengroq va to‘laqonliroq ma’noda nazarda tutayapman. Boshqacha aytganda, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan, jamiyat taraqqiyoti va odamlar manfaatiga xizmat qiladigan har qanday voqea-hodisalar, yangiliklar ham jasoratga qiyoslashga arziydi. Qutlug‘ 65 yilligi nishonlanayotgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topishi, jamoaning yaxshi niyat, yuksak vatanparvarlik tuyg‘usi bilan sobiq Ittifoqning turli burchaklaridan asriy Qizilqum bag‘rida yashirinib yotgan boyliklarni o‘zlashtirishga kelgan birinchi rahbaru mutaxassislari, ishchi-xizmatchilari, keyingi avlod, bugungi ulkan jamoasi amalga oshirgan va oshirayotgan ishlar, korxonaning rivojlanish va yuksalish bosqichlarini ana shu mezon bilan baholagan bo‘lardim.

Bir masalada fikrim qat’iy: sahroni ko‘rkam maskanga aylantirishga bel bog‘lagan turli millat vakillari balandparvoz so‘zlar va shiorlardan yuqori turadigan, o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifa nechog‘lik murakkab va mashaqqatli, bir qarashda hatto bajarishning imkon va iloji bo‘lmagandek tuyulgan mas’uliyatli ishlarning uddasidan chiqa olgan romantik va fidoiy insonlar edilar. Ular uchun oddiy ish kunlari, doimiy yumush bo‘lib tuyulgan ishlar aslida chinakam bunyodkorlik, jasorat edi.

Davomi 2-betda




## NKMK — MAMLAKATIMIZ FAXRI

**Normat TURSUNOV,**
**Navoiy viloyati hokimi**

Mamlakatimizda kechayotgan shiddatli islohotlar Navoiy kon-metallurgiya kombinati, uning ko‘pming sonli jamoasi uchun ham yangi imkoniyat eshiklarini ochib berdi. Qayd etish kerakki, kon-metallurgiya sohasi bugun nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda iqtisodiyot taraqqiyotining muhim asoslaridan biri sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlab, jadal rivojlanmoqda.

Mamlakatimizda hurmatli Prezidentimiz rahbarligida ushbu sohaga katta e’tibor qaratilib, ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda alohida e’tirof etish joizki, dunyoga taniqli va mintaqadagi eng yirik tog‘-kon sanoati korxonasi Navoiy kon-metallurgiya kombinatining viloyatimizda joylashganligi barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Kombinat jamoasi ulkan korxona tashkil topganligining 65 yilligini katta yutuqlar va muvaffaqiyatlar bilan qarshi olmoqda, desak har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi. Avvalo, fursatdan foydalanib, konchilik va metallurgiya sohasining barcha fidoyilari hamda faxriylarini Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganligining 65 yilligi bilan samimiy qutlayman.

Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbuslari asosida keyingi yillarda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo‘yicha faol investitsiya siyosati amalga oshirilayotgani “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati faoliyatida ham tub burilish, iqtisodiy yuksalish davrini boshlab berdi.

Jamoaning kuchi va salohiyati bilan davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan kombinatni rivojlantirish dasturi doirasida 2017–2023-yillarda 23 ta yirik investitsion loyiha ishga tushirilib, 15 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratilgani buning yaqqol misolidir.

Foydalanishga topshirilgan yangi gidrometallurgiya zavodlari, yangi ochilgan konlar, ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilib borilayotgani Yangi O‘zbekiston ravnaqiga munosib xizmat qilmoqda.

Xususan, mustaqilligimizning 32 yilligiga munosib tuhfa sifatida Nurota tumanining “Pistali” koni negizida barpo etilgan, 4 million tonna ma’danni qayta ishlash quvvatiga ega 6-gidrometallurgiya zavodi joriy yilning eng yirik investitsion loyihalaridan biri bo‘ldi.

Kelgusida korxonaning ishlab chiqarish quvvatini yanada oshirish maqsadida yaratuvchanlik ishlarini izchil davom ettirib, yirik innovatsion loyihalar asosida zamonaviy ishlab chiqarish majmualarini barpo etish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganligi uning imkoniyatlari tobora kengayib borayotganligini ko‘rsatadi.

Eng e’tiborlisi, mustaqillik yillarida ahil jamoaning fidokorona mehnati, bilim va tajribasi tufayli Navoiy kon-metallurgiya kombinati dunyodagi uran va oltin ishlab chiqaruvchi peshqadam korxonalar safidan mustahkam o‘rin egalladi. Kombinatda o‘tgan davr mobaynida ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshganligi barchamizning qalbimizni g‘urur va iftixorga to‘ldiradi. Ayni paytda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan qimmatbaho metallning asosiy qismi kombinat hissasiga to‘g‘ri kelayotgani ham fikrimizning isbotidir. Ulkan sanoat klasteri bo‘lgan kombinat o‘zining yuksak iqtisodiy salohiyati va o‘sish ko‘rsatkichlari bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda.

Barchamiz ko‘rib turibmiz, hayot kundan-kunga shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Ro‘y berayotgan shiddatli o‘zgarishlar kombinat mehnat jamoasi zimmasiga yanada muhimroq va aniq talablarni qo‘ymoqda. Biz bundan keyin ham sizlar yuksak malakangiz, boy tajriba va mahoratingiz bilan zimmalaringizdagi vazifalarni sharaf bilan ado etishlaringizga ishonamiz.

Eng muhimi, mamlakatimiz taraqqiyoti va rivoji, yuksalish jarayonlari, qo‘lga kiritilayotgan ulkan yutuqlarda mazkur nufuzli sanoat korxonasining o‘rni, jamoaning fidokorona mehnati borligini har birimiz mamnuniyat bilan e’tirof etamiz.

Barchangizni yana bir bor Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganligining 65 yilligi bilan samimiy qutlayman.

Sizlarga sihat-salomatlik, xonadoningizga tinchlik-osoyishtalik va fayzu baraka, yaratuvchanlik va bunyodkorlik yo‘lidagi faoliyatingizga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman!

## YUKSALISH SARI

**Bobir ISLOMOV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri**

Bugungi kunda respublikamizning eng yirik sanoat korxonasi hisoblangan Navoiy kon-metallurgiya kombinati mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga ulkan hissa qo‘shib kelmoqda.

Kombinatning ko‘p millatli va ahil jamoasi respublikamizda hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy islohotlar jarayonida, butun mamlakatimizni, milliy iqtisodiyotimizni tubdan modernizatsiya qilishda faol ishtirok etmoqda.

1958-yilda tashkil etilgan NKMK bugungi kunga qadar nafaqat qimmatbaho metallar ishlab chiqarish bo‘yicha respublikamiz iqtisodiyotining drayveri, balki konchilik va metallurgiya sohasining minglab turli kasb egalarini yagona maqsad sari birlashtira olgan ulkan kuch – katta jamoaga aylandi. Kombinat zimmasiga yuklatilgan dolzarb vazifalarni yuqori darajada bajarib kelmoqda, desam aslo yanglishmayman.

Korxonada 2017–2022-yillarda umumiy qiymati qariyb 2,2 mlrd. dollar bo‘lgan 20 ta yirik investitsion loyihalar ishga tushirildi va buning evaziga yangidan-yangi zamonaviy gidrometallurgiya zavodlari (5, 6 va 7-son GMZ) qurildi, yangi konlar o‘zlashtirilib, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, 14 mingta yangi ish o‘rinlari yaratilganligi kombinat jamoasi va mahalliy xalq hayotini yaxshi¬lashga qaratilgan chora-tadbirlardan biri bo‘ldi.

Davomi 3-betda

## HAMKORLIGIMIZ YANADA MUSTAHKAMLANADI

**Abdulla XURSANOV,**
**“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ boshqaruvi raisi**

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganligining 65 yillik shonli yubileyi bilan “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ mehnat jamoasi va o‘zimning nomimdan chin dildan tabriklayman.

Bugungi kunda NKMK dunyodagi oltin ishlab chiqaruvchi o‘nta yetakchi kompaniyalardan biri bo‘lib, O‘zbekistondagi yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, ruda qazib olish va qayta ishlashdan to tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan to‘liq ishlab chiqarish siklini o‘zlashtirgan eng yirik tog‘-kon korxonasi hisoblanadi.

Davomi 3-betda

## YUTUQLARINGIZ BARDAVOM BO‘LSIN

**Erkinjon TURDIMOV,**
**Samarqand viloyati hokimi**

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining fidoyi jamoasini jannatmakon yurtimizdagi sanoat korxonalarining lokomotivi hisoblangan qudratli korxona tashkil etilganining 65 yilligi bilan Samarqand viloyati hokimligi va jamoatchiligi nomidan samimiy muborakbod etaman!

Navoiy kon-metallurgiya kombinati mustaqil O‘zbekistonning g‘ururi va bayroqdori hisoblanadi. Mustaqillik yillarida zamonaviy tarzda shakllanishi va barqaror rivojlanishi tufayli u o‘zbek tog‘-kon sanoatining chinakam drayveriga aylandi.

Xususan, 2008-yildan keyin kombinatda ulkan ishlar amalga oshirilganini yaxshi bilamiz. Birgina, keyingi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan kombinatni 2026-yilgacha rivojlantirish dasturi doirasida 20 ta yirik investitsion loyiha ishga tushirilib, 14 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratilgani, buning evaziga korxonada oltin ishlab chiqarish hajmi 2022-yilda 2016-yilga nisbatan 21 foizga, kumush ishlab chiqarish hajmi 46 foizga oshgani buning yorqin isbotidir.

Keyingi yillarda barpo etilgan zamonaviy 5, 6, 7-gidrometallurgiya zavodlari, 3-gidrometallurgiya zavodida ishga tushirilgan kuydirish sexi, 2-gidrometallurgiya zavodining qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish (I-II bosqichlari), “Muruntov” konini o‘zlashtirish (V-navbati) bo‘yicha amalga oshirilgan loyihalar va boshqa ishlaringiz har qanday e’tirofga loyiqdir.

Shu bilan birgalikda, kombinat jamoasining mamlakatimiz rivojiga qo‘shayotgan ulkan hissasini, cho‘l bag‘rida shaharlar, bog‘lar yaratayotgani, tog‘-kon sanoatining zamonaviy sulolasini kamolga yetkazgani diqqatga sazovordir.

Jonajon Vatanimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va barcha sohalarda yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar doirasida, davlatimiz rahbari, hurmatli Sh.Mirziyoyev tomonidan kombinat oldiga qo‘yilgan istiqbolli loyihalar hamda belgilangan marralarni zabt etishlaringiz uchun barcha imkoniyat va salohiyatlaringiz yetarli ekanligiga ishonchim komil.

Sizlarning fidokorona mehnatlaringiz, aqlu zakovatlaringiz tufayli tabarruk zaminimiz tuprog‘i bag‘ridagi tabiiy boyliklar yurtimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligiga xizmat qilish bilan bir qatorda, dunyoning yetakchi kompaniyalari bilan olib borilayotgan hamkorlik natijasida kombinat nufuzi xalqaro miqyosda ham ortib bormoqda.

Barchalaringizga sihat-salomatlik, fidokorona ishlaringizda yangi zafarlar va ulkan muvaffaqiyatlar, oilalaringizga fayzu baraka va farovonlik tilayman!

## GULLAB-YASHNAYOTGAN GIGANT KORXONA

**Zoyir MIRZAYEV,**
**Toshkent viloyati hokimi**

Navoiy kon-metallurgiya kombinatini Samarqand viloyatida ishlagan faoliyatimdan yaxshi bilaman. U paytlar tizimda mutlaqo mahalliy kadrlar bo‘lmagan. Sababi, ertangi kunni o‘ylash yoki kelajakda shu kombinatning faoliyati nima bo‘ladi, kadrlar qayerda tayyorlanadi, umuman olganda, kombinatda ishlayotgan xodimlarning taqdiri, yashash sharoiti qanday kechadi – bu masalalar NKMKning o‘sha davr rahbarlarini qiziqtirmagan.

Hozir zamon o‘zgardi, Yangi O‘zbekiston davri boshlandi. Bugungi kombinatni ilgari davrdagi kombinat faoliyati bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Kombinatda ishlayotgan xodimlarning yashash sharoiti tubdan o‘zgardi. Turar-joy ta’minoti, sog‘liqni saqlash kabi yo‘nalishlarda sharoitlar mutlaqo yangilandi.

Mening nazarimda Navoiyda aynan kombinat, umuman tog‘-kon sanoati uchun kadrlar tayyorlab beradigan universitetning ochilganligi – eng katta yutuq bo‘ldi. Sababi, ilgarigi barcha kadrlar yuqorida ta’kidlaganimdek, aynan sobiq ittifoq tarkibida tayyorlanib kelingan. Shuning uchun ularning bu yoqda qolishi yoki bizning kadrlar u yoqqa borib o‘qib kelishi holatlari deyarli bo‘lmagan yoki o‘qib kelganda ham ularga mas’ul lavozim berilmagan.

Hozir kombinatga rahbarlik qilib kelayotgan Quvondiq Sanaqulovich shu soha bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan inson. U kishining atrofida ajoyib jamoadoshlari birlashgan. Eng asosiysi, ular ertangi kunni o‘ylaydigan insonlar ekanligi bizni juda quvontiradi.

Kombinat jamoasini katta sana bilan tabriklash, ularni qutlash biz uchun yuksak sharafdir. Nishonlanayotgan sana nafaqat kombinat, balki butun O‘zbekiston xalqining bayrami, desak ham aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tashkil topganiga 65 yil to‘layotgan bu gigant korxona mehnat jamoasini chin qalbimdan tabriklayman. El-yurtimiz ravnaqi yo‘lidagi fidokorona mehnatlaringiz uchun shu xalqning bir farzandi sifatida qo‘limni ko‘ksimga qo‘yib, rahmatlar aytaman va yangi-yangi zafarlar, yutuqlar tilayman!

■ Qutlov

# YUKSALISH SARI

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga ko'ra, "Pistali" konida 4 million tonna oltin rudasini qayta ishlash majmuasining qurilishi muvaffaqiyatli yakunlandi.

Kombinatda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi yo'lga qo'yilib, kon-metallurgiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimi yangi pog'onaga ko'tarilishi bilan sohada ko'plab o'zbek olimlari yetishib chiqdi.

NKMKning respublikamiz iqtisodiy qudratini oshirishga salmoqli hissa qo'shib kelayotganini ham alohida ta'kidlash mumkin.

Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri sifatida 2030-yilgacha NKMK jamoasining yirik investitsiya loyihalarni amalga oshirishi evaziga "O'zbekiston 2030" strategiyasida belgilangan qimmatbaho metallar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini to'liq, hatto ortig'i bilan bajarishga erishishiga ishonaman.

NKMK ishlab chiqarish faoliyati ishchi-xizmatchilarga har tomonlama qulay ish sharoitlari yaratish, ularning mehnatdan moddiy manfaatdorligi va turmush farovonligini oshirishga yo'naltirilganligi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Bu, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan xalqparvarlik, odamlarni hayotdan rozi qilish siyosatiga hamohangdir.

Shu ma'noda, kombinatning 65 yilligi ulkan korxona mehnat ahli, tajribali mutaxassislari, korxona kelajagini yaratayotgan yoshlari, kombinat rivojiga hissa qo'shgan hamda ayni paytda nafaqada bo'lgan faxriylarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Zero, 65 yil mobaynida NKMK nafaqat Yangi O'zbekiston, balki jahon miqyosida eng katta kompaniyalardan biriga aylanib, Vatanimiz faxri bo'lishiga minglab fidoyi odamlarning hissasi qo'shilgan.

Kombinatning 65 yilligi bilan Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, uning tizimosti tashkilotlari jamoasi, shaxsan o'z nomimdan samimiy tabriklayman.

NKMK jamoasiga ishlab chiqarish, metallurgiya va sanoatda yanada ulkan marralarni zabt etish, Vatanimiz rivojiga munosib hissa qo'shishdek sharafli ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman!

# HAMKORLIGIMIZ YANADA MUSTAHKAMLANADI

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Kombinatning oltin quymalaridagi "999.9" belgisi jahon qimmatbaho metallar birjalarida O'zbekiston brendiga aylandi. Bir sohaning vakillari sifatida yurtimizda mamlakatning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, jahon hamjamiyatidagi mavqeini oshirish va xalqimiz farovonligini ta'minlashga salmoqli hissa qo'shadigan shunday istiqbolli va jadal rivojlanayotgan korxona borligidan faxrlanamiz. Bizning korxonalarimizni ko'p yillik hamkorlik aloqalari bog'lab turadi. Safdoshlar ekanligimiz bois biz har doim turli texnik masalalarni hal qilishda yordam olamiz. Texnik va texnologik jihatdan murakkab ishlab chiqarishlar jarayonida ko'plab yo'nalishlarda to'plangan tajribamizni saxiylik bilan baham ko'ramiz. Ishonchim komilki, kelajakda bu munosabatlar o'zaro ishonch va hamkorlikning yuksak darajasida saqlanib qoladi. Hamjihat va mehnatsevar mutaxassislar jamoasi tomonidan amalga oshirilgan barcha yaxshi ishlar yanada rivojlanishiga ishonamiz. Yangi g'oyalar, tashabbuslarda omad, barqarorlik va rivojlanish hamroh bo'lsin! Sanoat gigantiga yangi marralar va ularning sharaf bilan zabt etilishini, rahbariyat va jamoaning barcha a'zolariga sog'lik, kuch-quvvat, farovonlik va Vatanimiz manfaati yo'lidagi mehnatlarida yangi yutuqlar tilayman!

**Navoiy kon-metallurgiya kombinatining shonli 65 yilligini shuhratli korxonaning barcha ishchi-xizmatchisi, muhandis-texnik xodimi singari ko'tarinki ruhda, hayajon va eng muhimi, ertangi kunga zo'r ishonch bilan qarshi olyapmiz. Kombinatimiz jamoasi har bir vakilida shunday kayfiyat, qalblarida faxr-iftixor tuyg'ulari hukmron ekanligiga aslo shubha yo'q. Qutlug' sana nishonlanayotgan kunlarda kombinatimiz mehnat ahlini, barcha hamkasblarimizni samimiy qutlaymiz.**

# INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIK – YUTUQLAR OMILI

Ma'lumki, mamlakatimizning bugungi rivojlanishi ko'p jihatdan investitsion jozibadorlikka erishilayotgani, investitsiiya loyihalarining ro'yobga chiqarilayotganligiga bog'liq. Kombinatimizda so'nggi yillarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan belgilangan reja va topshiriqlar muvaffaqiyatli bajarilayotganligining asosiy omillaridan biri ham ana shunda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 1-martda tasdiqlangan "Navoiy kon-metallurgiya kombinatida qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishni kengaytirish dasturi doirasida" umumiy qiymati 3 mlrd. dollardan ortiq bo'lgan 27 ta investitsiiya loyihasi to'liq bajarildi. Yirik investitsiya loyihalar doirasida 2017-2022-yillar mobaynida 12 ta texnik-iqtisodiy asoslar, 7 ta texnik iqtisodiy hisob-kitoblar ishlab chiqilib, hukumat karorlari bilan tasdiqlandi, yuzdan ziyod ishchi loyihalar ishlab chikilib, davlat ekspertizasidan o'tkazildi. Kombinat tomonidan qiymati qariyb 2,2 mlrd. dollar bo'lgan 20 ta yirik investitsiya loyihasi ishga tushirildi, buning natijasida 14 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi.

Joriy yilda 12 ta loyiha bo'yicha 473,5 mln. dollar kapital mablag'lar o'zlashtirilishi kutilmoqda. Yilning o'tgan o'n oyida qiymati 336,7 mln. dollar bo'lgan 3 ta yirik loyiha - "Pistali" konida oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish (6-GMZ), konda mazkur loyihaga oid sanoat obyektlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash, ichki va tashqi tarmoq inshootlari qurib, ishga tushirilib, 1572 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Yil oxirigacha "Balpantog'" va "Tomdibuloq" konlari negizida qazib olish karyerini qurish" va "Turbay" konlarini o'zlashtirish uchun qazib olish va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish" loyihalari nihoyasiga yetkaziladi. Buning natijasida 240,7 mln. dollarlik kapital mablag'lar o'zlashtiriladi va 1553 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Kelgusi yilda 12 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Buning uchun 391,5 mln. dollar miqdorida xorijiy kreditlarni jalb qilish borasida amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Umumiy qiymati 484,81 mln. dollarga teng 3 ta yirik loyiha ishga tushirilib, 1237 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida kelgusi yetti yilda qariyb 3 milliard dollarlik 20 dan ziyod yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi rejalashtirilgan. "Kokpatas" va "Dovgiztov" oltin konlarida ma'dan qazib olish. 3-bosqich", "Nuqrakon" va "Kosmonachi" konlaridan kumush tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish", "7-GMZ qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish", "Oltinni uyumda eritish sexini rekonstruksiya qilish (SKVZ)", "Yangi Dovon-Toshkon" konida ma'danlarni qazib olishni kengaytirish", "Muruntov" konini o'zlashtirish (V navbati) 2-bosqich" investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida nafaqat qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki minglab yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi kutilmoqda.

Investitsiya loyihalarining istiqbolli amalga oshirilishi va kelgusida yirik samaradorlikka erishish uchun Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan ko'p sonli loyiha, geologik, texnologik va ekologik qidiruv ishlari amalga oshirilmoqda. Ayni paytda loyihalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish ishlari, ya'ni loyiha konsepsiyasi, yiriklashtirilgan texnik-iqtisodiy va yakuniy texnik-iqtisodiy asoslari, loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda ESG (Enviromental, Social, Governance) tamoyillarini joriy etish bo'yicha tahliliy ma'lumot va hisob-kitoblar tayyorlanmoqda.

Yuqorida keltirilgan investitsiya jarayonlarini amalga oshirish 2030-yilga kelib O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasida oltin va kumush ishlab chiqarish yuzasidan "NKMK" AJ oldiga qo'yilgan rejalarni oshirib bajarish imkonini beradi. Navoiy kon -metallurgiya kombinatining 65 yilligi har birimiz va barchamizning bayramimiz. Shunday ekan, ulkan korxonamiz xodimlarini shonli sana munosabati bilan yana bir bor qizg'in muborakbod etamiz!

**Farhod BAHRONOV,**
**NKMK bosh direktorining investitsiyalar va kapital qurilish bo'yicha o'rinbosari.**
**Ne'mat RO'ZIYeV,**
**kombinat Investitsiyalar boshqarmasi boshlig'i.**

■ Dolzarb mavzuda suhbat

# REJALARIMIZ ULUG'

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etilganiga oltmish besh yil to'ldi. Janubiy kon boshqarmasi direktori Tolliboy Yuldashev bilan suhbatimizda u rahbarlik qilib kelayotgan kon boshqarmasining tarixiga va bugungi faoliyatiga yana bir bor nazar tashladik.**

**– Tolliboy Norboyevich, suhbatimizni Janubiy kon boshqarmasining tarixidan boshlasak.**

– Janubiy kon boshqarmasining tarixi bilvosita 1958-yili Nurobod tumani hududida uran koni topilishi bilan bog'liq. Ulus-Jom kengliklarida topilgan uran zahiralari mazkur hududga tog'-kon sanoatining kirib kelishiga katta turtki bo'lgan. "Sobirsoy" geotexnologik koni va uning tarkibida 1966-yilda 360 metr chuqurlikdan uranni qazib olishga ixtisoslashgan 1-yerosti koni, 1967-yil kuzida esa 2-yerosti koni barpo etilishi hudud sanoati uchun yangi davrni boshlab berdi. Konchilar maskani - Nurobod shahrining barpo etilishi ham Janubiy kon boshqarmasiga asos solinishi bilan chambarchas bog'liq.




2002-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 145-son qarori qabul qilindi. Hukumatimiz qarori bilan "Marjonbuloq" va "Zarmitan" konlari Janubiy kon boshqarmasi tarkibiga o'tkazildi. Natijada, kon boshqarmamizda oltin qazib olish rivojlana boshladi. Ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy etildi, mutaxassislar malakasi oshirildi. 2010-yili Qo'shrabot tumanida mustaqillikning ikkinchi yirik sanoat majmuasi bo'lgan 4-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi. Ushbu zavod qurilishi natijasida Zarmitan hududi infratuzilmasi, ijtimoiy hayotida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi.

Janubiy kon boshqarmasi tasarrufidagi "Zarmitan", "Gujumsoy" va "Marjonbuloq" konlarida ishlab chiqarish hajmining maromi ta'minlanmoqda. Boshqarmamiz tarkibidagi 4-gidrometallurgiya zavodi biz kutgandan ham muvoffaqiyatli ishlab turibdi. Zavodda rudani intensiv gravitatsiyalash va tarkibida oltin mavjud bo'lgan konsentratni intensiv ishqorlash texnologiyasidan foydalangan holda qayta ishlash amalga oshiriladi. "Marjonbuloq" konida gravitatsion-flotatsion-kuydirish sxemasi bo'yicha chidamli sulfidli rudalarni qayta ishlash liniyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

**– Keyingi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhasida o'zgarishlar yuz berib, investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiyotimizda yangi sahifa ochyapti. Mana shu davr Janubiy kon boshqarmasi faoliyatida qanday yutuqlar bilan eslanadi?**

– Keyingi yetti yilda Yurtboshimiz tomonidan olib borilgan oqilona siyosat samarasi o'laroq barcha sohalarda tub o'zgarishlar ro'y berdi. Boshqarmamiz faoliyatiga keladigan bo'lsak, so'nggi yillarda zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmiga o'tilgani xorijiy investorlarning e'tiborini tortmoqda. Barcha ishlarning zamon talablariga xos tarzda yo'lga qo'yilganligi faoliyatimiz jozibadorligini ta'minlayapti. Janubiy kon boshqarmasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Barcha korxonalarmizda zamonaviy kompleks avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi negizida intellektual tizimlar joriy etilgan. Ushbu tizim jarayonlarning raqamli boshqarilishini ta'minlaydi hamda avariyalar, to'xtab qolishlar, texnika va uskunalar eskirishlari bartaraf etilishi, ta'mirlash ishlarining zarurligi borasidagi ma'lumotlarni markazga taqdim etadi. Og'ir yuk tashuvchi avtoag'dargichlar va shaxta ekskavatorlari ishini monitoring qilish tizimi joriy etilgan.

Bugungi iqtisodiy o'sishning jadalligi yangi shaxtalarni ochishni talab etadi. Odatda shaxta qurilishiga o'rtacha 3-5 yil talab qilinadi. Kon boshqarmamiz negizidagi Zarmitan sanoat maydonida Chexiya Respublikasining "Mayn Konstrakshn Alyans" kompaniyasi bilan hamkorlikda nafaqat bizda, balki O'rta Osiyo tarixida ilk marotaba diametri 6,5 metr va chuqurligi 1000 metr, texnik jihatdan nihoyatda murakkab hisoblangan "Skip" va "Klet" harakatlanadigan shaxta stvolini qazish ishlari yakuniga yetkazildi. Bu - yaqin kelajakda yangi iqtisodiy ko'rsatgich va yangi ish o'rinlari demakdir.

**– Janubiy kon boshqarmasining o'tgan yil erishgan natijalari va kelgusida belgilangan rejalari haqida ham so'zlab bersangiz.**

– 2022-yil yakunlariga ko'ra ma'danni qayta ishlash rejasi 112,3 foizga, mahsulot ishlab chiqarish – 100,6 foizga bajarildi. 2021-yilga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 foizni tashkil qildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ta'mirlash-mexanika sexida 4 milliard 360 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va yillik reja 105 foizga bajarildi. Joriy yil oxirigacha dastur doirasida 12 ta loyiha buyicha kon-shaxta mexanizmlari uchun 5 milliard 620 million so'mlik, 42 turdagi mahsulot ishlab chiqarish mo'ljallanmoqda. 2024-yilda yangi turdagi kon-shaxta uskunalari uchun jami 7 milliard so'mlikdan ortiq ehtiyot qismlarni o'zlashtirishni o'z oldimizga maqsad qilib quyganmiz.

Joriy yil ma'danni qayta ishlash rejasi 102 foizga bajariladi. Shu maqsad yo'lida kon massasini chiqarish, tarkibida oltin mavjud bo'lgan ma'danni qazib olish va qayta ishlash hajmini oshirish borasida butun jamoa sidqidildan mehnat qilyapti.

**– Tolliboy Norboyevich, har qanday korxonaning muvaffaqiyatli faoliyati bevosita korxonaning kadrlar siyosatiga bog'liq. Buning uchun zamon talablaridan kelib chiqqan holda kadrlarni tayyorlash zarur. Kon boshqarmasida bu masala qanday hal etilmoqda?**

– Kombinat tizimida tarmoq korxonalarini barqaror rivojlantirish va ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot hajmini oshirish bo'yicha birinchi darajali vazifalarni bajarishga qodir muhandis-texnik va ishchi kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Janubiy kon boshqarmasi ham bu tizimdan ayro emas. Yosh mutaxassislar va yuqori malakali xodimlarni tayyorlash boshqarmamizning o'quv markazi-



da olib boriladi. Asosiy uchastkalarni boshqarish zamonaviy va kreativ fikrlovchi, turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, mustaqil fikriga ega yoshlarga ishonib topshirilyapti.

**– Yurtimizda odamlarni rozi qilish asosiy tamoyil sanaladi. Siz boshliq boshqarmada ishchi-xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?**

– Ayni paytda kon boshqarmamiz tizimidagi korxonalarda besh ming nafardan ortiq kishi mehnat qilmoqda. Xodimlarimizning ishlari oson emas. Nafaqat ishchilarimiz, balki ularning oila a'zolarini ham ijtimoiy himoyalashga katta e'tibor qaratib kelmoqdamiz. Shuningdek, pensionerlarimiz ham e'tibordan chetda qolmayapti. Ular uchun moddiy yordam, imtiyozli tibbiy xizmat ko'rsatilib, sanatoriy-kurortlarda davolanishlari uchun yo'llanmalar ajratilyapti. Umumxalq bayramlari kunlarida yolg'iz pensionerlar, urush va mehnat faxriylariga har tomonlama ijtimoiy yordam ko'rsatilishi an'anaga aylangan.

Ishchilar va ularning oila a'zolari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga e'tibor qaratilyapti. Sport majmualari zarur jihozlar bilan ta'minlangan. Ular doimo odamlar bilan gavjum.

Janubiy kon boshqarmasi jamoasi o'z oldiga yuksak maqsad va rejalarni qo'ygan va ularni ro'yobga chiqarish yo'lida astoydil izlanyapti, mehnat qilyapti.

Bugun kombinat tizimidagi barcha korxonalarda amalga oshirilyotgan ulkan yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishlari yurtimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligi uchun xizmat qilayotganligi bilan ahamiyatlidir. Bu bunyodkorlik ishlarida biz "janubliklar" ham kamarbasta ekanligimizdan faxrlanamiz.

Fursatdan foydalanib, konchilar va tizimda mehnat qilayotgan barcha ishchi-xodimlarni kombinatimizning 65 yillik qutlug' sanasi bilan tabriklayman. Ularning fidokorona va sharafli ishlarida omad tilayman.

**Suhbatni M.HUSANOV yozib oldi.**

# Muruntov

*Erk berildi Insonga*
*Nedur deb muddaosi.*
*Kutib turardi, ammo*
*Uni nafsning balosi.*
*Bandaning bu holati*
*Yoqmadi Yaratganga.*
*Qiziqtirib qo'ydi-ku*
*Tilla degan ma'danga.*
*Og'ir sinov edi bu,*
*Kimdir yonib kul bo'ldi.*
*Kimdir unga sohibu,*
*Kimdir esa qul bo'ldi.*
*Tilla dermish: qudratim*
*Uzun qildi tilimni.*
*Yenga olmadim faqat*
*Ajal bilan ilmni.*
*Ha, tilla saltanatin*
*Yo'qdir boshi, uchi ham.*
*U bilan o'lchangandir*
*Mamlakatlar kuchi ham.*
*Jodusimi, sehrimi,*
*Maftun etgan barchani.*
*Mayli, sharhlab o'tirmay*
*Ko'pga ma'lum narsani.*
*Balki zukko o'quvchim,*
*Bilgay mendan ziyoda.*
*O'zbekning tillasi ham*
*Talash bo'lgan dunyoda.*
*Kimningdir tomin hatto,*
*Qopladi tilla rangi.*
*Kimgadir tekkan edi*
*Faqat uning jarangi.*
*Qayda bosqinchi yov bor,*
*Bo'ri kabi o'ralab,*
*Bu yurtning tillasidan*
*Ko'z uzmagan mo'ralab.*
*Xayolimdan ketmas hech,*
*Olis yillar xotiri:*
*Tortishdi Fotih bilan*
*O'zbekning bir Botiri.*
*Botir dedi: – Konlarim*
*Xalqimning mulki erur.*
*Fotih dedi: – Bu gaping*
*Xomxayol, kulki erur.*
*Muruntoving fath etdim*
*Men o'z yarog'im bilan.*
*Botir dedi: – Men uni*
*Qazgum tirnog'im bilan!*
*Men uchun yaroq asli*
*Mehnatu sabot, dedi.*
*Ming yillik shaharlarim*
*Gapimga isbot, dedi.*
*U zamonlar Fotihning*
*Aytgani aytgan edi.*
*Tortishuvdan Botir ham*
*Shahd bilan qaytgan edi.*
*Bu bahsning zamirida*
*Bor edi zamon siri.*
*Ulug' bir xalq orzusi,*
*Ona Vatan taqdiri.*
*Eng avvali hurlikka*
*Zo'r tashnalik edi bu.*
*Sohibqiron zuryodi*
*Zanjirda qolmas mangu.*
*Dashtlardagi yantog'u*
*Tog'lar qoriga qadar.*
*Mo'ysafid mug'anniyning*
*Chalgan toriga qadar.*
*Aziz erur barchasi,*
*Zakot so'ramas xalqim.*
*Ayqirgan daryolarda*
*Bordir mening ham haqqim.*
*Dunyoni kiyintirar*
*O'zbekning paxtakori.*
*O'zbeksiz qizimagan*
*Asli jahon bozori.*
*Erk yo'lda farzandlar*
*Chekinmadi bir qadam.*
*Shu taxlit g'olib bo'ldik*
*Yigirma yil muqaddam.*
*Qadimiy Muruntovga*
*Boqib bugun yayrayman.*
*Turfa, yangi manzillar*
*Zalvoriga qarayman.*
*Hatto bir kon hududin*
*O'lchab yurish befoyda.*
*Bunaqasi uchraydi*
*Balki Mirrix yo Oyda.*
*Yurtim zoye ketmadi*
*Sabr va bardoshlaring.*
*Faqat ostonang emas,*
*Tilla bo'lsin boshlaring.*
*Zar kamarli botirsan,*
*Poyonsiz, dong'il yo'ling.*
*Endi keng dunyoga ham*
*Uzatsang, yetgay qo'ling.*
*Yurtimning bu tarixin*
*Yozdim oltin qalamda.*
*Har bitta el o'z erkin*
*Topsin ekan olamda.*

**Abdulla ORIPOV,**
**O'zbekiston xalq shoiri.**

# NKMK KASABA UYUSHMALARI KENGASHI

## mehnatkashlarni ijtimoiy himoyalash masalasiga alohida e'tibor berayapti

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi ulkan korxona tashkil topganligining 65 yilligini keng nishonlamoqda. Kasaba uyushmalari ham asosiy tashkilotchi va tashabbuskorlar safida bu muhim sanaga tayyorgarlik jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Shonli sana nishonlanayotgan kunlarda NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi Isroil Rahmatov bilan suhbatlashdik.**

***– Isroil Qurbonovich, suhbatimizni kombinat tashkil topganligining 65 yilligi va uni munosib kutib olishga tayyorgarlik mavzusida boshlasak.***

– Darvoqe, bayramga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rdik. Kombinatning 65 yilligini nishonlash ko'pming kishilik jamoamizni nihoyatda ruhlantirib yubordi. Yubileyga bag'ishlab hujjatli film, videorolik, kombinat tarixi kitobi, fotoalbom, "Konchilar hayoti" gazetasining maxsus soni tayyorlandi. Bayramni har bir bo'linmada ko'tarinki ruhda nishonlash, hamkasblarimiz, faxriylarimizga quvonch ulashish uchun ko'plab sport va ommaviy-madaniy dasturlar o'tkazilmoqda. Jumladan, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalaridan tashqari faxriylarimizning holidan xabar olish, sovg'a-salomlar va oziq-ovqatlar to'plamlarini ulashish, bayram dasturxonlari tashkil etish, faollarni rag'batlantirish va boshqa yo'nalishlarda qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Har bir bo'linma hayotida, ishchi-xodimlarimiz qalbida ayyom shukuhi, bayramona kayfiyat hukm surmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekiston kasaba uyushmalarining mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi beqiyos o'rni va ahamiyati e'tiborga olinib, yurtimizda 11-noyabr – "O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni" deb e'tirof etilgani barcha kasaba uyushmalari tizimida xizmat qilayotgan xodimlarga alohida faxr-iftixor bag'ishladi. Ushbu kun umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanib, o'z safida ko'plab insonlarni birlashtirgan kasaba uyushmalari hayotida unutilmas kun bo'ldi. Sohamizning jonkuyar va fidoyi xodimlari bunga javoban mas'uliyatli va serqirra faoliyatlarini kengaytirib, ishchi va xizmatchilarning kasbiy, mehnatga oid ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta'minlash, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarini yanada kuchaytirmoqdalar.

***– Kombinatning nufuzi, ulkan jamoa erishayotgan yutuqlar haqida ham o'z fikrlaringizni bildirsangiz.***

– Kombinat mahsulot ishlab chiqarish hajmini yildan-yilga oshira borib, respublikamiz iqtisodini rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. 2023-yilda qariyb 60 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish mo'ljallanmoqda. Bu hazilakam gap emas! Bu yutuqlar qariyb 47 ming kishilik kombinat jamoasining doimiy izlanishi, intilishi, matonatli mehnati tufaylidir. Davlatimiz rahbari tomonidan kombinatni 2026-yilgacha rivojlantirish dasturi 65 yilligi nishonlanayotgan korxona tarixida yangi istiqbollarni ochdi. Keyingi yetti yilda zamonaviy gidrometallurgiya zavodlari barpo etildi, yangi konlar ochildi, ko'plab ijtimoiy obyektlar qad rostladi. Mana shunday zalvorli odimlar, yutuqlar bilan kombinatning yangi tarixi yaratilmoqda. Aytingchi, bunday marralar bilan g'ururlanmay bo'ladimi?!

Oltin va kumush har qanday davlat iqtisodiyotining asosi, yurt kuch-qudrati, ulkan boylik hisoblanadi. Kombinatda ishlab chiqarilayotgan oltin yangi O'zbekiston xazinasini boyityapti, yurtimizning dovrug'ini oshiryapti. Bunga erishish uchun konchi va metallurglar, oltin ishlab chiqarishga u yoki bu jihatdan aloqador turli kasb egalari kecha-yu kunduz mehnat qilishi, halovatidan kechishi, Qizilqumning qahratoni-yu sahroning issig'iga chidashi, jasoratli mehnat qilishi talab etiladi.

Nazarimda bugun moddiy manfaatdorligi har jihatdan yuqori bo'lgan, zamonaviy ish sharoiti va juda katta ijtimoiy paketga ega kombinatda ishlayotgan har bir hamkasbimiz, ularning oilasi o'zini baxtli hisoblaydi. Yashirmayman: biz bilan bir safda ishlashni orzu-havas qilganlar qancha?! Shu bois, yuzga yaqin kasb egalari, qirqqa yaqin millat va elat vakillari, o'n uch ming nafar yoshlar, o'n ming nafarga yaqin xotin-qizlardan tarkib topgan ahil jamoada bir oiladek bo'lib ishlash har birimiz uchun ulkan sharaf, shu bilan birga, katta mas'uliyat hamdir.



***– "Insonlar – kombinatning asosiy boyligi". Ushbu ezgu g'oya korxonamiz hayotida azaldan bardavom. Shunday emasmi?***

– Qayerda ijtimoiy adolat barqaror bo'lsa, albatta, o'sha yerda muvaffaqiyatlarga erishiladi, odamlar hayotidan rozi bo'ladi. Mehnatkashlarimiz qalbida shukuronalik tuyg'usi kundan-kunga oshmoqda.

Kasaba uyushmalarining amaliy faoliyati har bir mehnatkash uchun munosib mehnat sharoitini yaratish, oilasi va farzandining kelajagi, ma'naviy jihatdan sog'lomligi hamda baxtu saodatini ta'minlashga yo'naltirilgan. Albatta, insonlar Navoiy kon –metallurgiya kombinatining eng asosiy boyligi hisoblanadi. Shuning uchun ham kombinatning ijtimoiy siyosati odamlarning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash va oshirishga qaratilgan. Bu esa o'z o'rnida hududiy rivojlanish hamda ijtimoiy barqarorlikka salmoqli hissa bo'lib qo'shilmoqda. Kasaba uyushmasi Kengashi o'z safida minglab a'zolarni birlashtirib, ularning mehnatga oid huquq va manfaatlarini ta'minlashda yaqindan yordam berib kelmoqda. Ushbu ustuvor vazifalarni samarali bajarish uchun kasaba uyushmasi Kengashi tizimida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, mehnat jamoalarida xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash ishlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

***– Ma'lumki, kasaba uyushmasi Kengashi o'z faoliyatini mehnatni muhofaza qilish, Jamoa shartnomasi, ishlab chiqarish madaniyatini yuksaltirish, mehnat muhofazasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga tayangan holda amalga oshiradi. Bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lami qanday?***

– Kombinatning 2022-2024-yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasida ish beruvchi va kasaba uyushmasi o'rtasida munosabatlarning huquqiy asoslari, eng muhimi, ishchi-xizmatchilarning mehnat qilishi, mehnatga haq to'lash, dam olish, salomatliklarini mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratish va boshqa ijtimoiy himoya kafolatlari o'z aksini topgan.

Korxonamizda mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi doimiy nazorat qilib borilmoqda. Sir emas, kon-metallurgiya sanoati inson hayoti uchun xavfli bo'lgan ishlab chiqarishlar, xatarlar, murakkab jarayonlar bilan bog'liq. Shu bois, bu masalaga doimiy e'tibor qaratilib, bu ishga bevosita aloqador xodimlar mas'uliyati oshirilib, o'qitilib kelinmoqda. Ishchilarning maxsus oyoq kiyimi, usti-bosh va boshqa himoya vositalari bilan ta'minlanishi, ovqatlanish sifati, bo'linmalarning sanitariya holati va ishlab chiqarishda zaruriy sharoitlar yaratilishi ham e'tibordan chetda qolmayapti.

Rahbariyat tashabbusi bilan kasaba uyushma vakillarining ma'muriyat bilan birgalikda ish joylari, ishlab chiqarish uchastkalari va sexlarda mehnat sharoitlari, muhofazasi, unga rioya etilish holati, xodimlarni yo'riqnomalardan o'tkazish yuzasidan maqsadli o'rganishlar olib borish tizimli yo'lga qo'yildi. Kombinat muhandis-texnik xodimlarining mehnat muhofazasi yuzasidan bilim darajalarini oshirish maqsadida ular o'rtasida "Ishning eng yaxshi tashkilotchisi va mehnat muhofazasi bo'yicha qonun va qoidalar bilimdoni", mehnat muhofazasi vakillari o'rtasida esa "Yilning eng yaxshi mehnat muhofazasi vakili" hamda 11 ta yo'nalish bo'yicha "Yilning eng yaxshi yosh mutaxassisi" kabi tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda. G'oliblar munosib taqdiranib, istiqbolli kadrlar zaxirasiga kiritilmoqda.

Kombinatda mehnat intizomiga rioya qilish masalasi doimo birinchi o'rinda bo'lib kelgan. Erishayotgan yutuqlarimizning zamirida ham avvalo mehnat intizomini kuchaytirishga e'tibor berilayotganligi turibdi.

Ammo, bu boradagi ishlarimizni yanada kuchaytirishimiz kerak. Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan zamon har birimizdan doimo izlanib, tashabbus ko'rsatib, yangicha ishlashni talab etmoqda.

***– Kombinatda mehnatkashlar va ularning oila-a'zolarini sog'lomlashtirish hamda madaniy saviyasini oshirish bo'yicha qanday imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda?***

– Mehnatkashlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun Tibbiy – sanitariya bo'limi va uning joylardagi Tibbiy – sanitariya qismlari zamonaviy tashhislash-davolash asbob-uskunalari bilan ta'minlanib, korxonalarda profilaktik ko'riklar va sog'lomlashtirish tadbirlarini olib borish hamda birlamchi malakali tibbiy yordamni ko'rsatish maqsadida tibbiy punktlar tarmog'i ham tashkil etilgan. Ishchi-xodimlar, ularning oila a'zolari va pensionerlarni sog'lomlashtirish faoliyatimizda muhim yo'nalishlardan biridir.



Mehnatkashlarni sog'lomlashtirishni ko'zlab kasaba uyushmasi tomonidan "Konchi" sihatgohi, "To'dako'l" dam olish bazasi, "Metallurg" va "Nurobod" sanatoriy-profilaktoriylari, Yalta va Kislovodsk shahridagi "O'zbekiston" sanatoriylari, "Turon", "Oqtosh", "Chinobod", "Umid gulshani", "Bo'ston", "Sitorai Mohi Xossa", "Chortoq", "Chimyon" sanatoriylariga imtiyozli narxlarda har yili 15 mingta yo'llanmalar ajratiladi. Shu o'rinda aytish joizki, 2019-yilda Jizzax viloyatining Zomin tumanida 150 o'ringa mo'ljallangan "NKMK" sanatoriysi foydalanishga topshirildi. Chimyon tog'li hududida joylashgan "Gornyak" pansionati joriy yil kapital ta'mirdan so'ng ish faoliyatini boshladi. Mavsumiy dam olish uchun bu yil "To'dakul" oromgohi yangilangan holda ishga tushirildi.



Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Nurobod shaharlari va Zafarobod shahar tipidagi aholi punktida joylashgan Tibbiy – sanitariya bo'limlari 110 ming nafarga yaqin aholiga xizmat ko'rsatadi. Barcha muassasalarda zamonaviy tibbiy va diagnostika jihozlari o'rnatilgan. Z-Tibbiy-sanitariya bo'limida "Ona va bola skrining markazi" faoliyat olib bormoqda. 2019-2021-yillarda jami 150 milliard so'mlik davolash-diagnostika tibbiyot uskunalari olindi.

Bundan tashqari, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida, 10 ming nafarga yaqin ishchi-xodimlarimiz, pensionerlar va mehnat faxriylarining Xiva, Toshkent, Buxoro, Shahrisabz, Samarqand kabi tarixiy shaharlarga sayohatlari tashkil etildi va bu tadbirlar davom ettirilmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida mehnatkashlar va ularning oilalari madaniy-ma'rifiy hordiq chiqarishi uchun yetarlicha sharoit yaratilmoqda. Bunda, Navoiy shahridagi "Farhod" va Uchquduq shahridagi "Uchquduq" madaniyat saroylari, Zarafshon shahridagi "Oltin vodiy" va Nurobod shahridagi "Nurobod" madaniyat uylari, Zafarobod qo'rg'onidagi "Yoshlik" madaniyat va sport markazi, Karmana tumanidagi "Navro'z" klubi, Zarkent qo'rg'onidagi "Konchi" madaniyat-sport majmuasi, Navoiydagi bolalar ijodiyoti markazi kabi maskanlarda yuzlab iste'dodlar o'zlarining iqtidorlarini namoyon etish yo'lida mahoratlarini oshirmoqdalar. Bu muassasalarda 170 dan ortiq badiiy jamoalar va to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, 26 tasi "Xalqona" va "Namunali" degan maqomga egadir.

Ularda ayni paytda 4500 nafarga yaqin bolalar va kattalar shug'ullanishadi. Badiiy jamoalar bir necha marotaba respublika va xalqaro tanlovlar g'oliblari safidan o'rin olgan. Kombinatning ijodiy jamoalari har yili 3 mingdan ortiq madaniy tadbirlarni o'tkazishga bosh-qosh bo'lmoqda. Bundan tashqari, ijodiy guruhlar uzoqda joylashgan qishloqlar, kombinat bo'linmalariga musiqiy dasturlar bilan chiqishib, muxlislarni o'zlarining kuy-qo'shiqlari bilan xushnud etib kelishmoqda. Toshkent shahridagi "Turkiston" va "Istiqlol" san'at saroylarida uyushtirilgan katta xayriya konsertlari minglab muxlislarning olqishiga sazovor bo'lmoqda.

Yurtboshimizning beshta tashabbusiga hamohang tarzda kitob mutolaasi, kitobxonlikni keng targ'ib etish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Nurobod shaharlarida umumiy miqdori 343 mingdan ortiq kitob fondi bo'lgan kutubxonalar mavjud bo'lib, ularga har yili 25,5 ming nafarga yaqin kitobxon tashrif buyurmoqda. Kitobsevarlarning 8,5 ming nafarga yaqinini 15 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

***– Kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj ishchi-xodimlar, pensionerlar va yoshlarga qanday ko'mak ko'rsatilyapti?***

– Turli sana va bayramlar doirasida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildiki, buning natijasi o'laroq, kasaba uyushma Kengashi ishchi-xodimlarning eng quyi qatlami orasigacha bevosita kirib bordi. Kengash a'zolari soni avvalgi yillardagiga nisbatan anchaga oshdi. Inson omili hamda hayot farovonligi bilan bog'liq samarali ishlar bundan keyin ham davom ettiriladi.

Kasaba uyushmalari tomonidan bo'linmalardagi mehnat sharoitlarini nazorat qilish barobarida ishchi-xizmatchilarning maishiy sharoitlarini yaxshilashda ma'muriyat bilan doimiy hamkorlik qilinmoqda. Ana shu maqsadda kasaba uyushmasi tomonidan joylarda shart-sharoitlarni yaxshilash uchun joriy yilning o'tgan davrida 4 milliard so'm mablag' sarflandi.

Kasaba uyushmasi tasarrufida tashkil etilgan "Birdamlik" fondi tomonidan 500 nafardan ortiq kam ta'minlangan, yolg'iz pensionerlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj ishchi-xodimlarga 1 milliard so'mdan ortiq miqdorda moddiy yordam ko'rsatildi.

Har bir bayram arafasida muhtojlar holidan xabar olish va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish an'anaga aylangan. Jumladan, kasaba uyushmalari kuni arafasida "NKMK" AJ, "Navoiyuran" davlat korxonasi, "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasi va kombinat tizimidagi barcha korxona, tashkilot hamda muassasalarda ishlayotgan ehtiyojmand ishchi-xodimlar, mehnat faxriylariga 550 ta oziq-ovqat jamlanmalari tarqatildi.

***– Kasaba uyushmalarining ishchi-xodimlar farzandlari uchun yozgi ta'tilni maroqli tashkil etish va ularni sog'lomlashtirish borasidagi amaliy faoliyatiga ham to'xtalib o'tsangiz.***

– Bu masala kasaba uyushmasi Kengashining har doim e'tiborida. Kombinat tasarrufidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida ishchi-xodimlarning bolalari yozgi ta'til mavsumini maroqli o'tkazishlari, salomatliklarini mustahkamlashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan.

NKMK tizimida 13 ta bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari faoliyat ko'rsatmoqda va ularda har yili yoz mavsumida 12 ming nafardan ziyod bolalar sog'lomlashtiriladi. Tomdi, Uchquduk, Nurota tumanlarining kam ta'minlangan oilalari uchun har yili 1000 dona bepul yo'llanmalar ajratiladi. Shuningdek, Navoiy shahar ko'zi ojizlar, Navoiy viloyati karlar jamiyatlari, O'zbekiston nogironlar jamiyati Navoiy hududiy bo'limiga ham imtiyozli yo'llanmalar ajratilib kelinmoqda.

Ushbu yo'nalishda olib borilgan ishlar zamirida albatta, bolajonlarning yozgi ta'tillarini mazmunli o'tkazishi, salomatliklarini mustahkamlashlari, bilimlarini oshirish va dunyoqarashini rivojlantirish orqali muloqot maydonlarini kengaytirish mujassam.

Kengash bundan buyon ham xodimlarni ijtimoiy himoyalash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularning oilasi, farzandlari haqida qayg'urish, muammolarini hal etishda ko'maklashish va boshqa qator birinchi darajali vazifalarni amalga oshirishda sobitqadamlik bilan faoliyat olib boradi.

**Suhbatdosh
Dildora KARIMOVA.**

# JURNALISTLAR UCHUN PRESS-TUR TASHKIL ETILDI




**Navoiy mashinasozlik zavodi respublikamizdagi yirik sanoat korxonasi hisoblanadi. Ayni paytda bu yerda mahalliylashtirilgan va import o'rnini bosuvchi ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mahsulotlar turi 15 mingdan ortiq. Yillik iqtisodiy ko'rsatkich esa o'rtacha 1,2 trillion so'mga teng. Uch yarim ming nafarga yaqin jamoa zavod tashkil etilganligining 60 yilligini ulkan natijalar bilan kutib olmoqda.**

Ushbu sana oldidan zavodda ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun press-tur va matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbir davomida hamkasblarimiz korxonaning yirik sexlarida bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar.

Zavodda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, jumladan, har xil turdagi dastgohlar, tegirmonlar, uskunalar, jihozlar, ehtiyot qismlar yuqori sifati, xaridorgirligi bilan ajralib turadi. Kombinat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan turli uskuna va jihozlar, tegirmonlar hamda ehtiyot qismlarning 97 foizga yaqini aynan shu zavodda tayyorlanmoqda.

- Bu yil biz uchun qo'shaloq bayram. NKMKning 65 yilligi hamda zavodimiz tashkil topganligining 60 yilligini nishonlaymiz. Mana shu sanalarni ajoyib mehnat zafarlari bilan kutib olish uchun hamkasblarimiz fidokorona mehnat qilmoqdalar. Ushbu bayramlar arafasida jurnalistlarning korxonamizga kelgani juda yaxshi bo'ldi, – deydi zavod xodimi Mashhura Rahimova.

Korxona ishlab chiqarish faoliyatiga tadbiq etilayotgan investitsion loyihalar, modernizatsiyalash o'sish sur'atini ta'minlab, yangi istiqbollarni ochmoqda. "Mexanika-yig'uv sexini texnik va texnologik qayta jihozlash" joriy yilda amalga oshirilgan muhim loyihadir. Mazkur loyiha doirasida yengil konstruksiyali jihozlardan yangi bino qurilib, zamonaviy dastgohlar o'rnatildi. Yangi sexning ishga tushirilishi og'irligi 980 tonnagacha bo'lgan tegirmonlar, 400 tonnagacha bo'lgan yirik o'lchamdagi jihozlarga ishlov berish imkonini yaratdi. Zavodning quymachilik sexida 25 tonnalik zamonaviy metall eritish pechi ishga tushirilishi natijasida metall eritish quvvati yiliga 30 foizgacha oshadi.

-Navoiy mashinasozlik zavodiga oxirgi marta respublika televideniyesining viloyat muxbiri bo'lib ishlagan davrimda kelganman. Qarang-a, g'oyat qisqa davrda qancha o'zgarishlar ro'y beribdi! Matonatli insonlar mehnatiga yana bir bor qoyil qoldim, - deydi press-tur ishtirokchisi Boboqand Umarov. – Press-tur davomida yangi qahramonlar bilan tanishdik, sohaning ko'plab vakillari bilan suhbatlashdik. Bu yerdagi ish jarayonlari jurnalistlarda juda katta taassurot qoldirdi.

Press-tur ishtirokchilari korxona ishchi-xodimlariga yaratilgan shart-sharoitlar bilan ham tanishdilar.

Zavod majlislar zalida OAV vakillari uchun matbuot anjumani tashkil etildi. Matbuot anjumanida zavodning ishlab chiqarishni mahalliylashtirish bo'limi boshlig'i Baxtiyor Toshbolatov korxonada mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqida axborot berdi. Taqdimotda ta'kidlanganidek, 2008 yilda zavodda 29 ta loyiha doirasida 27 milliard 101,3 million so'mlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, joriy yilda loyihalar 105 taga yetkazilib, mahsulot hajmi 53 milliard 200,7 million so'mlikka yetkazilishi mo'ljallanmoqda.

Matbuot anjumanida jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob olishdi.

**Dildora TO'LQINOVA,
Matbuot markazi muxbiri.**

# ПОЗДРАВЛЯЕМ!

## Руководству АО «НГМК»

Сотрудничество с Вашим предприятием является одним из важнейших направлений нашей работы.

Благодаря нашим совместным усилиям реализуются новые проекты и планы на высоком качественном уровне, принося нам огромное удовлетворение, а гражданам нашей страны – гордость!

Примите наши искренние поздравления в честь этой знаменательной даты! Пусть ваши энергия и оптимизм помогут в достижении новых высот, опыт и интуиция подскажут новые цели, а удача будет вашей доброй попутчицей! Мы надеемся, что и в дальнейшем наше сотрудничество будет плодотворным и успешным!

**М.КОНЦЕВЕНКО,**
**генеральный директор**
**ИП ООО «Zeppelin Central Asia Machinery».**

## Уважаемый Кувандик Санакулович!

Компания ИП ООО «IKO Machinery», официальный дистрибьютор Komatsu в Республике Узбекистан, поздравляет Вас и ваш коллектив с замечательной датой – 65-летием горно-металлургического комбината!

Мы желаем Навоийскому ГМК процветания, новых побед и новых рекордов золотодобычи, достойных славной истории комбината!

Успех НГМК – это наш успех, успех Komatsu в Узбекистане, это успех всей нашей страны, рост ее богатства и авторитета на международной арене!

«IKO Machinery» всегда будет рядом, чтобы поддержать Ваш коллектив в новых свершениях и предоставить надежную технику, подходящую для выполнения самой ответственной работы на высочайшем уровне.

Новых Вам успехов и уверенных взглядов в будущее!

Мы с Komatsu, со своей стороны, постараемся внести свой посильный вклад в осуществление самых амбициозных планов комбината!

**Т.ТУРСУНОВ,**
**генеральный директор ИП ООО «IKO Machinery».**

## Уважаемый Кувандик Санакулович!

От имени коллектива ОАО «БелАЗ» - управляющая компания холдинга «БелАЗ-ХОЛДИНГ» и от себя лично позвольте поздравить всех сотрудников АО «Навоийский горно-металлургический комбинат» с 65-летием со дня образования предприятия!

За годы становления Вы прошли большой и славный путь, в основу которого положены опыт и лучшие традиции предшествующих поколений, преумноженные на современные инновации и технологии.

Достижения Навоийского горно-металлургического комбината стали возможны благодаря единой команде опытных и целеустремленных руководителей, выстроенной технологии добычи и производства, усилиям рабочего коллектива. На Вашем предприятии работают талантливые, трудолюбивые, компетентные, объединенные общими ценностями, специалисты, решающие сложные задачи на высочайшем уровне.

В настоящее время коллектив АО «НГМК» демонстрирует умение соответствовать вызовам времени, использовать инновационные подходы, принимать и реализовывать отраслевые и государственные стратегические задачи.

Пусть юбилей Вашей компании послужит точкой отсчета для новых свершений! Искренне желаем Вам, глубокоуважаемый Кувандик Санакулович, крепкого здоровья и благополучия. Пусть ещё долгие годы сопровождают Вас и возглавляемый Вами коллектив профессионализм и динамичность в делах, неиссякаемая энергия и новые трудовые успехи.

**С.НИКИФОРОВИЧ,**
**Генеральный директор ОАО «БелАЗ» .**

## Уважаемые коллеги!

От всей души поздравляю вас с нашим праздником – 65-летием комбината!

На нашей земле любой труд в почёте – мы высоко ценим представителей всех профессий. Но горнякам и металлургам доверены главные богатства страны – золото, серебро, уран, которые способны не только укрепить экономику Узбекистана, но и сделать его народ процветающим и благополучным.

Благодаря поддержке Президента и Правительства Узбекистана в горном деле и металлургии происходят широкомасштабные перемены, ведётся техническое и технологическое перевооружение производства, что позволяет достигать новых рубежей и обеспечивает устойчивый рост экономического потенциала и социальной стабильности.

Навоийский горно-металлургический комбинат занимает достойное место в экономике нашего молодого государства, является передовым предприятием, задающим тон всем горнодобывающим производствам Республики Узбекистан. За 65 лет его деятельности накоплен богатый научный и практический опыт работы по добыче полезных ископаемых в сложнейших климатических условиях, по их переработке и выпуску готовой продукции.

Наш коллектив прилагает все усилия, чтобы мощная минерально-сырьевая база, доверенная нам как профессионалам горного дела, грамотно, рационально и бережно использовалась, становясь крепким фундаментом экономики и источником благополучия.

Новому поколению горняков досталось не только богатое производственное наследие, но и новые стратегические задачи. Сегодня коллектив НГМК работает в сложных климатических, горнотехнических и гидрогеологических условиях. Мы вынуждены осваивать трудно добываемые и трудно перерабатываемые руды с низким содержанием, что приводит к росту затрат на их добычу и переработку. Но инженерный корпус комбината вкладывает все знания и опыт в их оптимизацию.

К юбилею мы подошли с хорошими результатами, и практически все основные производственные показатели выполнены.

Тысячи жителей нашей страны, представляющих коллектив НГМК, гордятся своей принадлежностью к почётной профессии горняка и металлурга. Этот профессиональный праздник с особым чувством воспринимается в Навоийской, Самаркандской, Джизакской, Сурхандарьинской областях. И сегодня Навоийский горно-металлургический комбинат — это стабильная и надёжная работа, это высокий уровень социальной и гражданской ответственности. Это крепкая и сплочённая команда с замечательными профессиональными традициями.

От всей души поздравляю всех с юбилеем нашего предприятия. Сердечно всем желаю мира и достатка, великолепных идей и постоянного энтузиазма, только качественной работы и достойных зарплат. Пусть НГМК процветает и приносит пользу нашему государству и народу Узбекистана!

**Николай СНИТКА,**
**советник главного инженера**
**АО «НГМК».**

# GEOLOGIK IZLANISHLARDAN – YIRIK KORXONAGAChA

**O'tgan asrning elliginchi yillarida yirik uran konlarini topish va o'zlashtirishdek strategik vazifalar bepoyon Qizilqum cho'llarida uran zaxiralarini izlab topish va uni sanoat usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha yangi tarixga poydevor qo'ydi.**

Ayni o'sha kezlar geologlar Qizilqum shimolida ulkan zaxiraga ega uran konini kashf etishdi. 1958 yilda Uchquduq hududida uran rudasini qazib olish va qayta ishlash maqsadida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etildi va o'sha yildan Uchquduq uran konlaringing bir qismini sanoat usulida o'zlashtirish boshlandi.

Mutaxassislarning qayd etishicha, uranni qazib olish ishlari bu yerda ancha murakkab bo'lgan. Negaki, uranni qazib olish ishlari birinchi bor olib borilayotgan, qolaversa, uning zaxiralari murakkab kon-geologik sharoitlarda joylashgan edi. Bu esa o'z navbatida ilmiy tadqiqot ishlarida va konni o'zlashtirishda yangi texnologik usullar, eng samarali uslublarini qo'llashni talab qilar edi.

O'tgan asrning oltmishinchi yillari boshida Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi va 1-tajriba sexi foydalanishga topshirilib, unda "Uchquduq" koni rudalaridan uran ajratib olish texnologiyasining sinovlari boshlandi.

Dastlab kon qazish ishlari ochiq kon usulida amalga oshirilib, 1965-yildan gidrogenli qumtosh konlarining rivojlanishi natijasida yer ostida eritmaga o'tkazish usuli joriy etildi.

Gidrogeologik sharoitlar xilma-xilligi va konlarda ishlab chiqarilayotgan rudalarning tarkibi korxonaga uranni eritib olish usullari va texnologiyasini tanlashda katta tajriba orttirishga imkon yaratdi.

Oradan o'tgan 65 yil vaqt davomida korxona texnik va texnologik jihatdan yangilanib bordi, o'z zamonasining ilg'or tajribalaridan foydalanib, uran ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4629 sonli qarori qabul qilinishi hamda tabiiy uran va noyob metallarni qazib olish va qayta ishlashga ixtisoslashgan "Navoiyuran" DKning tashkil etilishi tom ma'noda korxona uchun yangi davrni boshlab berdi.

"Navoiyuran" DKning asosiy ishlab chiqarish mahsuloti tabiiy uran bo'lib, "Zafarobod" kon boshqarmasi, "Uchquduq" va "Nurobod" ishlab chiqarish maydonlarida joylashgan 6 ta geotexnologik konlarda qazib olinadi va Navoiy shahridagi Uran ishlab chiqarish zavodida uran chala oksidi ko'rinishiga keltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan belgilangan eksport ko'rsatkichlarini bajarish uchun 2022-2026-yillar davomida ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan tabiiy uran hajmlari Yaponiyaning "Itochu" va "Marubeni" kompaniyasiga, Fransiyaning "Orano mining" kompaniyasiga, Kanadaning "Cameco", Hindistonning "Atom energetikasi departamenti"ga hamda Janubiy Koreyaning "KHNP" kompaniyasiga eksport qilinishi bo'yicha tegishli shartnomalar imzolangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi "2022-2030-yillarda "Navoiyuran" davlat korxonasida uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-319-son qarori qabul qilindi.

2030-yilga borib uran mineral xomashyosi bazasini 100 ming tonnaga yetkazish, yangi konlarni ochishni ta'minlashga yo'naltirilgan geologiya-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish, uran xomashyosini qazib olish va qayta ishlab chiqarish hajmini uch baravarga oshirish belgilangan. Korxona tomonidan uran qazib olish va qayta ishlashni ko'paytirish maqsadida 500 mln dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshiriladi.

Ma'lumki, davlat korxonalarini transformatsiya qilish orqaligina ularning jozibadorligini oshirish mumkin. "Navoiyuran" DKni transformatsiya qilish bo'yicha ham qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Buning uchun xalqaro tajribaga ega bo'lgan va nufuzli xorijiy kompaniyalar jalb etilmoqda. Korxonaning 2030-yilga qadar rivojlanish strategiyasini va operatsion samaradorligini oshirish dasturi ustida "McKinsey & Company" xalqaro konsalting kompaniyasi ish olib borayapti.

2022-2023-yillar uchun moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlari (IFRS) asosida tayyorlash va xalqaro audit tashkilotlari tomonidan auditdan o'tkazish maqsadida "Deloitte" auditorlik kompaniya va "Grant thornton valuation" baholash kompaniyalari mutaxassislari jalb etilgan.

Korxonaning xalqaro kredit reytinglarini olish maqsadida amaldagi zaxiralarni xalqaro standartlarga (JORC Sode) muvofiq hisob yuritish uchun 17 ta muhim maydonlarning ro'yxati belgilangan. Bu borada "SRK Consulting Group" konsalting kompaniyasining 20 ga yaqin mutaxassislari tomonidan korxonaning resurslarini qayta baholash ishlari joriy yil yakuniga qadar 7 ta maydonda yakunlanadi.

Qayta baholash ishlari yakuni bilan hamda "Katta to'rtlik" ("BIG FOUR") xalqaro audit kompaniyasi auditidan so'ng, 2023-yil yakuni bilan birinchi kredit reytingi 2024-yilning 2-yarmida qo'lga kiritilishi rejalashtirilgan.

2023-yilning 10 oyi davomida prognozga nisbatan tabiiy uran mahsuloti ishlab chiqarish yillik hajmlari 108,4 foizga bajarildi va 111 foizga o'sish sur'ati ta'minlandi.

Jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi rejaga nisbatan 108,5 foizga, o'sish sur'ati 110,7 foizga, burg'ilash ishlari rejaga nisbatan 114,2 foizga, mahsuldor eritmalarni qazib olish hajmi 112,4 foizga bajarildi.

Hozirgi kunda "Navoiyuran" DK Xitoy davlatini istiqbolli sherik sifatida ko'rmoqda va u bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan.

Hozirda "Aulbek", "Janubiy Sugrali", "Maybuloq", "Sharqiy Agron" va "Aktau" konlarida tajriba sinov ishlari olib borilmoqda hamda "Nurkon" va "Ziyokon" konlarida tajriba-sinov ishlarini boshlash uchun texnologik quduqlarni burg'ilash ishlari amalga oshirilmoqda.

Albatta ishlab chiqarish hajmining oshishi bevosita yondosh tarmoqlarning ham quvvatini oshirishni talab etadi. Shu maqsadda, korxonaning Navoiy maydonidagi Uran ishlab chiqarish zavodi hamda Uchquduq maydonidagi Sulfat kislota ishlab chiqarish sexida qo'shimcha quvvatlarni ishga tushirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Har qarich yeri oltinga kon jonajon yurtimizning zarra tuprog'i ham Vatanimiz gullab-yashnashi va yorqin kelajagining garovi bo'lib, uzoq yillar xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz hamkasblar!

**Norqo'zi URDABAYEV,**
**"Navoiyuran" DK ishlab chiqarish bo'yicha direktori.**

# НА СТРАЖЕ КАЧЕСТВА

**Для любого производства высокое качество продукции — главный признак конкурентоспособности. А для продукции Навоийского горно-металлургического комбината высокое качество – это авторитет на международном уровне. Поэтому на каждом производственном объекте комбината созданы отделы технического контроля (ОТК).**



Это звено в нашем горно-металлургическом производстве невозможно отнести к второстепенным. На отделы технического контроля возложена ответственная задача контроля качества не только готовой продукции, но и всей технологической цепочки золотоизвлекательного производства.

Сегодня речь пойдёт о работе ОТК, расположенном на территории гидрометаллургического завода №3 Северного рудоуправления АО «НГМК». Его возглавляет Ольга Васильевна Янушкова, которая трудится в данном подразделении со дня основания завода. И вот как она вспоминает первые месяцы работы.

– Начинать какое-либо дело всегда непросто, поэтому на все отделы и цеха ГМЗ-3 была возложена большая ответственность, - говорит она. – Шло освоение технологии, подготовка документаций, инструкций и т.д. Не везде была налажена телефонная связь. Нам, работникам ОТК, тоже приходилось трудно. В заводской лаборатории тогда ещё не производили многие анализы, не определяли основной элемент, поэтому пробы, которые мы отбирали в жидком виде, доставляли в лабораторию Цеха по производству серной кислоты. Кроме того, в ОТК тогда работали только женщины, которым приходилось выполнять тяжёлую физическую работу. А её у нас до сих пор немало. К примеру, отбор проб руды или входной контроль реагентов пробы отбираются в количестве по 25-30 кг, затем их сокращают, формируют и подготавливают 5 кг на анализ. Сейчас эту работу мы возлагаем на нашу сильную часть коллектива – мужчин. С годами, благодаря опытным наставникам, руководителям завода и рудоуправления, работа наладилась. Сейчас для улучшения работы есть всё - связь стационарная и сотовая, компьютеризация полная, что значительно облегчает труд. Иногда рассказываю молодым работникам, как приходилось трудиться раньше, чтобы ценили сегодняшний день…

С декабря 1995 года ОТК ГМЗ-3 был присвоен статус самостоятельного подразделения Северного рудоуправления, которое ведёт полный контроль и учёт качества выпускаемой заводом продукции, контролирует технологические переделы и схемы, производит отбор и подготовку проб, проверяет улучшение качества выпускаемого сырья.

Коллектив ОТК молодой, многонациональный, люди прибыли из разных уголков нашей страны. Среди 98 человек 17 мужчин, из них 6 ИТР, остальные - контролёры продукции обогащения.

– День в ОТК начинается, как традиционно принято на производстве, с инструктажа по технике безопасности, так как безопасность работников для нас стоит на первом месте, - говорит Ольга Васильевна. – Затем, работники ОТК расходятся по своим рабочим местам, где находятся основные точки замеров. Они производят замеры на определение плотности пульпы, гран.состава песков, выявляют технологические нарушения регламента в технологических переделах. В отделении флотации, например, производим отбор на определение исходного продукта гидроциклонных установок – первая, вторая стадии, смотрим какой гран.состав (определение по классам песков с помощью рассева), какова его крупность, плотность…

Работники ОТК практически всегда находятся на территории завода, данные произведённых ими замеров заносятся в технологический журнал. Важно, что замеры делаются комиссионно с представителями управления завода и цехов. Все данные передаются в производственно-диспетчерский отдел начальнику смены ГМЗ-3, а также сообщаются начальнику ОТК.

Таким образом, если в течение смены имеются отклонения в технологических переделах, то, естественно, в курсе все. Словом, работники ОТК контролируют все технологические процессы, вплоть до качества готовой продукции. Помимо контроля технологии, работники ОТК в обязательном порядке производят входной контроль реагентов, которые поступают на завод.

Коллектив отдела технического контроля отличается сплочённостью и высокой ответственностью. Практически все новички остаются здесь работать на долгие годы. Во многом, это заслуга ветеранов производства, которые с первых дней прививают молодёжи любовь и интерес к профессии. Среди наставников молодёжи старший мастер ОТК Шерзод Садуллоевич Шабонов, контролёры Акылбек Утебаевич Жарылкапов, Наталья Владимировна Чванова, Олтынай Рахматовна Раджабова, Истат Рахматовна Раджабова и другие. Все они трудятся здесь практически со дня основания завода и обучили уже десятки учеников, многие из которых до сих пор работают в данном подразделении.

Ольга Васильевна Янушкова тоже начинала работать в ОТК в 1995 году контролёром ОТК. Затем окончила заочное отделение Навоийского промышленного техникума по направлению «Обогащение полезных ископаемых». С 2010 по 2011 годы работала мастером контроля, затем старшим мастером ОТК. С 2013 года назначена начальником ОТК. Она по праву считает себя коренной жительницей Учкудука, поскольку ей было всего 3 года, когда родители по приглашению на работу переехали сюда из Кемеровской области России. Мама работала в детском саду воспитателем, отец – на карьере «Восточный». Многие годы занятий спортивной борьбой – дзюдо – приучили к строгой дисциплине, ответственности, целеустремлённости, умению работать в команде. Эти качества помогают ей руководить таким большим коллективом.

– У нас всегда работали и сейчас работают замечательные люди, - говорит она. - Хочется отдать должное нашему куратору из службы технического контроля Северного РУ Нуриддину Рахматовичу Мирзоеву, как грамотному специалисту и нашему помощнику. А также моим первым наставникам – мастерам Раисе Гарифуловне Махмудовой, Валентине Васильевне Лихман. Они не просто обучали, но и давали мудрые жизненные советы. Сегодня они на заслуженном отдыхе, но мы поддерживаем общение, созваниваемся, советуемся до сих пор. В целом, коллектив нашего подразделения молодой, перспективный, творческий, у всех есть цель, ответственность. Наши сборные команды участвуют во всех общественных, культурных и спортивных мероприятиях. Я горжусь своим коллективом, каждым его членом. Мы как одна дружная семья. В основе наших взаимоотношений лежит доверие друг к другу и взаимопомощь. Поскольку у нас работают в основном женщины и девушки, нередко они приходят ко мне поделиться своими проблемами или радостью. Я стараюсь находить время для каждой – выслушать, поддержать, помочь по возможности. И они отвечают взаимностью, стараются не подвести меня в работе, проявляют ответственность, инициативу, добросовестность.

Ольга Васильевна Янушкова за многолетний труд неоднократно поощрялась почётными грамотами, в честь 60-летия НГМК награждена отраслевым нагрудным знаком «Горняцкая слава» III степени, в 2023 году в честь Дня работников горной и металлургической промышленности - нагрудным знаком «Ветеран НГМК». Но она не считает их личными заслугами. «Всё это - заслуги работников коллектива ОТК, - говорит она. – Потому что капитан без команды не капитан».

Такое единение и взаимопонимание руководителя и коллектива сказывается на высоком качестве работы. Ведь труд на заводе, на любом его участке или цехе, лёгким не назовёшь. И в этих условиях доверие, взаимопомощь, единство коллектива помогают и стимулируют на плодотворную работу.

Таким образом, качество работы зависит от качества атмосферы в коллективе. А в отделе технического контроля с этим всё в порядке.

**Насиба ШАМУРАТОВА.**

## ■ Davlat mukofoti sovrindorlari

**Umr inson uchun berilgan eng buyuk ne’mat.Uning har bir damini ezgu va savob amallar bilan bezash esa o‘z qo‘limizda. Biz ko‘p bora ta’kidlaganimiz bir gap bor: odam bolasi oilani, Vatanni, ota-onani tanlashi o‘z qo‘lida emas. Qanday oilada, qaysi yurtda va qaysi millat farzandi bo‘lib tug‘ilishingni bilmaysan. Ammo ulg‘ayib, voyaga yetib, qaysi kasbni tanlash va qanday yashash ko‘p jihatdan o‘zimizga bog‘liq. Sayfiddin Bahronov ham o‘z taqdirini o‘zi yaratib, sevgan kasbida faoliyat yuritib, uning ortidan hurmat qozongan, mehnatda ko‘plab yutuqlarga erishgan va ayni vaqtda jamiyatda barchaga o‘rnak bo‘la olgan insondir.**

# UMR MAZMUNI

### yoxud Sayfiddin akaning baxtli yashash formulasi

Qadim Buxoroning Vobkent tumanida tug‘ilib voyaga yetgan Sayfiddin Bahronov 1983-yili Buxoro shahridagi 53-hunar texnika bilim yurtini tamomlagach, taqdir uning yo‘llarini Zarafshon shahri bilan bog‘laydi. Markaziy kon boshqarmasiga qarashli Avtomobil tarnsporti boshqarmasi avtomobillarni ta’mirlash sexida chilangar bo‘lib faoliyat boshlaydi. Germaniya davlatining Maynburg shahrida ikki yillik harbiy xizmatni o‘tab qaytgach, transport boshqarmasi og‘ir yuk ko‘taruvchi karyer avtoag‘dargich haydovchisi va boshqa kasblarda astoydil mehnat qildi. Ayni paytda mazkur boshqarmaning 1-sonli transport uchastkasi avtoag‘dargich haydovchisi bo‘lib faoliyat yuritib kelmoqda. O‘tgan yillar davomida o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqati, fidoyiligi uchun Sayfiddin Bahronov 2012-yilda “Shuhrat” medali, mustaqilligimizning 32 yilligi arafasida esa “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi ” faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

“Agar inson kasbini sevsa, vaqt qanday o‘tganligini sezmay qolib, bajarayotgan ishidan charchamaydi. Tanlagan kasbi bilan shug‘ullanish kishiga zavq, shijoat, rag‘bat hamda ma’naviy kuch beradi. Ba’zan ishimiz ko‘payib, mas’uliyatimiz ortgandan-ortadi. Shunda rahbariyat topshirig‘ining ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash uchun bor imkoniyatimiz va shijoatimiz bilan ishlashga to‘g‘ri keladi. Jamoamizning ahilligi bois har bir vazifa muddatida bajariladi”, - deydi Sayfiddin aka Bahronov.

Avtomobil transporti boshqarmasi zamonaviy korxona bo‘lib, bu yerda 3150 nafar ishchi-xodimlar mehnat qilishadi. Boshqarma jamoasi “Muruntov” konining chuqurligi 650 metrdan oshganligi, ma’danni tashish yildan-yilga murakkablashib borayotganligiga qaramasdan, 2-gidrometallurgiya zavodiga ma’danni uzluksiz yetkazib bermoqda. Boshqarma “Muruntov” koni yo‘llari, kon transport texnikalarini ta’mirlash va




ularga xizmat ko‘rsatish ishlarini ham amalga oshiradi. Bir kunda 410,5 ming kubometrdan ko‘proq hajmda ish bajarilayotganida Sayfiddin aka kabi haydovchilarning arzigulik xizmati bor.

“Sayfiddin Fattoyevich oliy toifali haydovchi, o‘z ishining mohir ustasi, ko‘plab shogirdlarning sevimli ustozi sifatida jamoamizda hurmat qozondi. Qizilqum cho‘lining murakkab iqlim sharoitlariga qaramay “Muruntov” konidan kon ma’danlarini tashish rejasini muntazam ravishda bajarib kelmoqda”, - deydi Avtomobil transporti boshqarmasi boshlig‘i Nodir Yusubov.

Har bir inson singari Sayfiddin Bahronov ham quvonchli kunlarini hayajon bilan eslaydi.

“Xushxabarning qanoti bor, deyishadi. Davlatimiz rahbarining Farmoniga binoan yuksak unvon bilan taqdirlanganimni eng avvalo, jamoamdagilardan eshitdim. Bo‘g‘zimga nimadir tiqilib, ko‘zlarimga yosh keldi. Kamtarin mehnatlarim yuksak mukofotga loyiq ko‘rilganidan edi, bu quvonch yoshlari. Eng katta baxtim bu-sevgan kasbim va atrofimda ahil jamoa, meni qo‘llab-quvvatlab turgan rahbariyat, mehribon oilamning borligidir. Nimaniki istagan va harakat qilgan bo‘lsam, barchasiga erishdim va buni men umr mazmuni deb bilaman. Shunday ulkan korxonada ishlash men uchun baxt, yurt koriga yarash esa har qanday insonning burchidir”, - deydi u.

Ha, qahramonimiz ta’kidlaganidek, ona Vatanning buguni va istiqboli uchun halol xizmat qilish har bir insonning zimmasidagi ulkan mas’uliyatdir. Sayfiddin Bahronov kasbidan baxt topgan inson. U kishining baxt formulasi ham o‘zi kabi oddiy: mehnat doimo omad va baxt keltiradi.

**Nafosat ZIYOYEVA,**
**MKB axborot va ma’naviyat – ma’rifat guruhi muxbiri.**

# ПОЗДРАВЛЯЕМ!

**Друзья-коллеги!**
**Сегодня замечательный день, юбилей Навоийского горно-металлургического комбината. Искренне всех поздравляю и желаю всем нам стабильности и процветания, успешной деятельности, трудолюбия, ответственности, внимательности, благополучия и удачи.**

Пусть наш комбинат крепко стоит на ногах, пусть работа приносит вам радость, пусть каждый из вас чувствует себя востребованным и счастливым человеком. Поздравляю всех, кто работает в системе НГМК, весь огромный коллектив нашей ведущей компании с юбилеем. Хочу отметить, что за 65 лет проделана колоссальная работа по консолидации отрасли, по ее сохранению и развитию. С древних времен всем было известно, что недра пустыни Кызылкум богаты полезными ископаемыми. В результате проведенных исследований в 1958 году был образован НГМК.

Сегодня он является ядром инновационного горно-металлургического кластера Узбекистана. Это единственное горнодобывающее предприятие, освоившее полный цикл производства от разведки запасов в недрах, добычи руды и ее переработки до получения закиси урана и готовых слитков золота высшей пробы. Инновационный кластер расположен на территории пяти областей республики – Навоийской, Самаркандской, Хорезмской, Джизакской, Сурхандарьинской и Республики Каракалпакстан. Он объединяет в себе признаки промышленных, научно-производственных и образовательных кластеров, и создает превосходную основу для реализации новых форм интеграции знаний и технологий, возникновения прорывных научно-технологических направлений, поддержания сферы образования и науки, малого и среднего инновационного предпринимательства.

Навоийский ГМК уверенными шагами продолжает следовать по пути развития, предусматривающему строительство новых и модернизацию действующих предприятий, увеличение объемов производства продукции, а также создание рабочих мест для обеспечения занятости населения.

Навоийский горно-металлургический комбинат – это надежный, крепкий фундамент для жизнедеятельности и развития нашего города, региона и страны в целом. Профессиональное становление, семейные истории многих горожан связаны с градообразующим предприятием. Это позволяет смело и уверенно смотреть в будущее, гордиться своей причастностью к славной трудовой истории комбината!

С праздником! Пусть работа ладится, пусть упорные старания и совместные усилия всегда поддерживают безупречную репутацию родного комбината.

**Сероб ИСУНЦ,**
**директор**
**по производству НГМК.**

**Сегодня в Навоийском горно-металлургическом комбинате грандиозное событие – 65 лет с его основания. Это не просто дата, это жизнь, наполненная достижениями и победами, слаженной работой многих поколений геологов, металлургов, горняков. От имени геологов комбината и себя лично хочу поздравить всех работников с юбилеем!**

Благодаря изыскательским работам и открытиям геологов началась новая история Кызылкумского края и становление нашего комбината. За эти годы собраны лучшие кадры специалистов – геологов, геофизиков, буровиков, способных в сложных, порой опасных условиях, вести поисковые работы по золоту с целью расширения сырьевой базы комбината. Именно эти героические люди своим мужеством, упорством и дисциплиной заложили основу современных взглядов на геологию. Старших опытных специалистов сменили их ученики, имеющие в распоряжении современную технику. Они решают уже более сложные задачи, но заложенные традиции хранились и передавались из поколения в поколение.

Юбилей, будь то событие в жизни одного человека, либо целого коллектива - хороший повод подвести итоги и наметить пути и перспективы. Несмотря на имеющиеся трудности, коллектив геологов всего комбината выполняет утвержденный руководством план.

Уважаемые коллеги, работники славного коллектива Навоийского горно-металлургического комбината! Вы занимаетесь прекрасным делом, хочется пожелать вам здоровья, счастья, оптимизма и благополучия. Пусть эта юбилейная дата станет точкой отсчета на пути к новым успехам и достижениям, новой страницей в трудовой летописи коллектива.

**Сергей РУДНЕВ,**
**главный геолог.**

## ■ Oramizdagi odamlar

**Kasb tanlash-har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biridir. Kasb-nafaqat daromad topish manbai, balki umrning asosiy qismi bag‘ishlanadigan faoliyat hamdir. Taqdir yo‘lini to‘g‘ri tanlagan, har qanday mashaqqatlardan chekinmasdan, matonat bilan halol mehnat qilgan, o‘z kasbini ulug‘lagan insonlar orzu-maqsadlariga erishishi, shubhasiz! Buni ko‘p yillardan buyon Navoiy mashinasozlik zavodida temirchilik kasbida mehnat qilib kelayotgan Faxriddin Hamdamov misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. U amaliy faoliyati, yutuqlari bilan jamoada hurmat-e’tibor topib, ustozlik maqomiga ega bo‘ldi.**

# MEHNATGA MUNOSIB RAG‘BAT

Faxriddin Hamdamov Navoiy viloyatining Karmana tumanida tug‘ilgan. U maktabni tugatib, Navoiy qurilish boshqarmasi Avtotransport boshqarmasiga chilangar bo‘lib ishga kiradi. Harbiy xizmatdan so‘ng ta’mirlash-mexanika zavodi temirchilik bo‘linmasi shtamplovchisi, keyingi o‘ttiz to‘rt yildan buyon esa Navoiy mashinasozlik zavodi temirchilik-presslash sexining presslash va bolg‘alash uchastkasida temirchi bo‘lib ishlab kelmoqda.

– “Farzand onasi yoki otasining kasbini davom ettirmoqchi bo‘lsa, bu juda yaxshi. Lekin oilaviy an’analarni davom ettirish majburiy emas, chunki inson yoqtirmagan ishi bilan butun hayot davomida shug‘ullansa, o‘zini baxtsiz his qiladi. Shuning uchun har bir kishi bu masalada istaklari, hayotdagi maqsadlari va qiziqishlaridan kelib chiqib ish tutishi lozim. Temirchilik kasbini tanlashim naslimda shu kasb egalarining borligidan bo‘lsa ajab emas. Dadamning bobolari Hamdam bobo va ularning aka-ukalari Karmana bekligida temirchi bo‘lib o‘tishgan”, - deydi F.Hamdamov.

Temirchilik mashaqqatli, lekin sharafli kasb. U olovdan va temirning issiq taftidan cho‘chimaslikni talab qiladi. Bejizga dono xalqimiz “Uchqundan qo‘rqqan temirchi bo‘lmas” demaydi. Turli xil markali po‘latdan yasalgan detallar va yarim tayyor mahsulotlarni qizdirib bolg‘alash, shtamplash, pechlarni qizdirish temirchining vazifasiga kiradi. Bu haqda Faxriddin aka: “Kasbimizning mazmun-mohiyati temir materiallarni deformatsiyalash, tashqi kuch ta’sirida shaklini o‘zgartirishga asoslangan. Temirchilikda keng qo‘llaniladigan usullaridan biri bosim bilan ishlov berish




bo‘lib, u eng muhim detallarni tayyorlashda ishlatiladi. Metall ishlash usullari materiallarning dastlabki holatiga, jihozlarga, asboblar bilan uskunalanishiga bog‘liq”,-deydi.

F.Hamdamov mehnat faoliyatida ko‘plab yoshlarni tarbiyalab, ustozlik darajasiga yetdi. Uzoq yillik samarali mehnati, shogirdlariga talabchan va samimiyligi bois hurmat qozonib, o‘ziga xos maktab yaratdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Ishga endi kelgan vaqtlarimda Baxtiyor Muxtorov, Olim Saidov kabi ustozlardan ish, kasb sirlarini o‘rgandim. Vaqt o‘tib, endilikda o‘zim ustoz bo‘lib Aziz Botirov, Aziz Mavlonov kabi shogirdlarga bilganlarimni o‘rgatayotganimdan baxtiyorman”,-deydi qahramonimiz.

Uzoq yillik samarali mehnatlari munosib taqdirlanib, Faxriddin Hamdamov 2008-yilda “Shuhrat” medali, 2016-yilda “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan. Bu mukofotlar mehnat va fidoyilikka berilgan munosib bahodir.Faxriddin akaning shaxsiy hayotda ham omadi chopgan. Turmush o‘rtog‘i Gulnora opa Karmana kasb-hunar maktabi ishlab chiqarish ustasi bo‘lib ishlagan, ayni vaqtda nafaqada. O‘g‘li Farhod o‘zi ishlaydigan zavodning elektrmontaj uchastkasida elektrmontyor, katta qizi Sohiba tibbiyot texnikumi talabasi, kichigi Madina esa Buxoro texnologiya muhandislik institutining sirtqi bo‘limida iqtisod yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olmoqda. Lazizbek, Sabina, Azima kabi nevaralar Gulnora buvi va Faxriddin bobosining erkalari.

Asrlar davomida ularga bo‘lgan talab-ehtiyoj tugamaydigan, aksincha oshib boradigan kasblar bor. Temirchilik kasbi shunday kasblar sirasiga kiradi. Faxriddin Hamdamov ana shu kasbni ulug‘lab, baxt, obro‘-e’tibor topayotgan zamondoshlarimizdan.

**A.AXMEDOVA,**
**Matbuot markazi muxbiri**

## ■ Dildagi gaplar

# MAS’ULIYAT HISSI BILAN

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati boshqarmasining xaridlarni tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish bosh boshqarmasi korxonada o‘z o‘rniga egadir. Boshqarma tarkibida faoliyat ko‘rsatayotgan hamkasblarimiz zimmalaridagi vazifalarni sidqidildan bajarib, kombinatning 65 yilligini yorug‘ yuz, yutuqlar bilan qarshi olmoqda. Jamoamiz dunyoga mashhur korxonaning ravnaqi yo‘lida xizmat qilayotganidan, uning rivojiga hissa qo‘shayotganidan hamisha mamnun.**

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan keskin raqobat muhiti, innovatsion taraqqiyot, texnologiyalar rivojlanishi davlat va korporativ xaridlarni amalga oshirishda muhim talablarni qo‘ymoqda. Rivojlangan mamlakatlarda xaridlarni samarali tashkil etishga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki bu muvaffiyatlar keltiradi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qator hujjatlar qabul qilinishi ishlarni qonuniy amalga oshirishga mustahkam zamin yaratdi.

Keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonda xaridlar jarayonini takomillashtirish yuzasidan katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Natijada barcha subyektlar uchun qulay muhitni shakllantirish, xaridlarni amalga oshirishda shaffoflik ta’minlanmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan elektron savdolar, sanoat kooperatsiyalari va yarmarkalar, tender savdolari buyurtmachilar va yetkazib beruvchilar o‘rtasida mustahkam ko‘prik vazifasini o‘tab, ishonchli hamkorlar izlab topishga xizmat qilmoqda.

Boshqarmamiz kombinat ehtiyoji uchun 35 ming turdan ortiq zarur moddiy-tovar boyliklarni yetkazib berish bilan shug‘ullanadi. Bugun xarid qilinayotgan mahsulotlar orasida zamonaviy kon texnikasi va avtotransportlari, ehtiyot qismlar, kimyoviy moddalar, har xil turdagi uskuna va jihozlardan tortib, oddiy detallargacha bor.

Keyingi yillarda ishlab chiqarish hajmi kengayishi, yangi korxonalar barpo etilishi hisobiga ish ko‘lamimiz yanada ortdi. Bu borada nafaqat respublikamizdagi ishlab chiqaruvchilar, balki nufuzli xorijiy kompaniyalar bilan ham yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Ular bilan ko‘p qirrali aloqalar ko‘lami yanada kengaymoqda. Kombinat rahbariyati har doim bizni qo‘llab-quvvatlab kelayotgani ishimizni samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Xalqimizda: “Hamkorlikda hikmat ko‘p”, degan maqol bor. Amerikaning “Caterpillar”, Yaponiyaning “Komatsu Limited”, “Hitachi Ltd”, “Liebherr” kompaniyalaridan turli texnikalar, yuk mashinalari, ekskavatorlar xarid qilyapmiz.

Davlatimiz tomonidan xaridlarni shaffoflik asosida tashkil etish bo‘yicha yaratib berilayotgan imkoniyatlar, kooperatsion yarmarkalar faoliyatimizni qonuniy tashkil etish imkonini yaratmoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida bunday qulayliklar asosida umumiy qiymati 3,8 trillion so‘mlik 3,5 mingdan ortiq shartnomalar tuzilgani buning isbotidir.

Ayni paytda “Sdk group and”, “Avtotraktorradiator”, “Stalmet group service”, “Gidro stanko servis” MChJ, “Aziya Gormash” MChJ QK, “Yog‘du” XK, “Navpromlitmash” MChJ, “Ihlas Electrics” MChJ, “Chilon Lubricants” singari ishlab chiqaruvchilar bilan samarali hamkorlikda ish olib boryapmiz.

Oltmish besh yil, albatta, quvonchli va shuning bilan birga barchamiz faxrlanishga arzigulik sanadir. Chunki biz shu nufuzli korxonada ishlab, jamiyatda o‘rnimizni topib, orzu-maqsadlarimizga erishyapmiz. Navoiy kon-metallurgiya kombinati ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilish, uning yutuqlariga o‘z hissamizni qo‘shish biz uchun burch va faxrdir. Bu zimmamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Fursatdan foydalanib, barcha hamkasblarimizni ushbu qutlug‘ sana bilan chin qalbdan tabriklaymiz!

**Ma’rufjon AMONOV,**
**Xaridlarni tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish bosh boshqarmasi boshlig‘i.**

**Hayot – ko‘pqirrali murakkab jarayon, unda o‘z o‘rningni topish uchun yaxshilar ila do‘st bo‘lmoq, ustozlar o‘gitlarini tinglamoq zarur. Ularga ergashmoq, etaklaridan mahkam tutmoq ortida xayrli hikmatlar yashirin.**

# Ustoz

2004-yilda Shimoliy kon boshqarmasida mehnat faoliyatimni boshlarkanman, yaxshi insonlarning ko‘maklari, yordam va maslahatlari tufayli ulkan korxonada o‘z o‘rnimni topdim. Kon boshqarmasi tarkibidagi bog‘chada ishlarkanman, til masalalarida duch kelgan muammolarimga, pedagogik yo‘nalishdagi savollarimga tajribali ustozlar Gauxar Tajetdinova, Olga Xatamova kabi mutaxassislardan javob oldim. Bolalar bilan ishlash naqadar maroqli va qiziq, pedagogika yo‘nalishi keng qamrovli va serqirra bo‘lishiga qaramay, muassasada faqat maktabgacha ta’lim yo‘nalishi doirasida qolib ketgandim. Mo‘jizaviy soha – kon-metallurgiya xususida ma’lumotlarim deyarli mavjud emasdi.

Inson hayotida nimalar sodir bo‘lishiyu, kimlar uning hayotiga kirib kelishi haqida oldindan bilmoqqa qodir emas, orzulashi, tushlari ta’birini mushohada qilishi yoki biroz chamalashi mumkin xolos. Kon boshqarmasining turli yo‘nalishlarini o‘zida jamlagan boshqarma binosi yonidan o‘tarkanman, banogoh: “Kun kelib shu binoda ishlayman”, degan ichki ovoz tafakkurimda chaqindek yoyilgani esimda va vaqti-soati yetib o‘sha oniy fikr haqiqatga aylandi. Bu maskanda taqdirning menga atalgan yana bir yaxshiligi – Santalyat Niyazmetovadek insondan kasb sirlari bo‘yicha ta’lim oldim.

Davomi 8-betda ▶

**Hayotning o‘ziga xos baland-pastliklari, mashaqqatu sinovlari, boshqacha aytganda, ilgaridan bashorat qilishning iloji bo‘lmagan qonuniyatlari bor. Inson umri shunchaki bosib o‘tiladigan tep-tekis yo‘l emas, shunday bo‘lganda hayotning qadr-qimmati, umrning mazmuni ham bu qadar yuksak bo‘lmasdi. Biroq bir haqiqat ayon. Hayotning har qanday murakkabliklariga tayyor bo‘lgan, qismat atalmish sinovlariga dosh berib, qiyinchiliklaridan cho‘chimay, ertangi kunga ishonchini yo‘qotmasdan doimo maqsad sari qat’iy intilgan inson, albatta, ezgu niyatlariga erishadi. Mashaqqatu kurashlar silsilasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar zamirida jamiyat rivoji yo‘lidagi halol va fidokorona mehnat mujassam bo‘ladi.**

# ISHONCH — INSONGA QANOT





Kon sohasining tajribali mutaxassisi Avazxon Ezozxonov joriy yilning 20-sentabrida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati “1-gidrometallurgiya zavodi” kon boshqarmasi direktorligiga tayinlandi. U uzoq yillar sohada mehnat qilib, yetarli tajriba to‘plaganligi bois shunday ishonchga munosib ko‘rilgan bo‘lsa ajabmas. Kombinatning yirik bo‘linmalaridan biri bo‘lgan kon boshqarmasi jamoasiga yetakchilik qilish Avazxon Nezomxonovichning zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklashini chuqur his qiladi, albatta. Darvoqe, Avazxon Ezozxonov hozircha turli lavozimlarda, jumladan 2018-yildan Markaziy kon boshqarmasi “Auminzo-Amantoy” koni boshlig‘i lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. U nafaqat Namangan viloyati Pop tumani, balki serquyosh respublikamizning ham eng xushmanzara, betakror maskanlaridan bo‘lgan Chodak qishlog‘ida tug‘ilib voyaga yetgan. Qishloq yaqinida yirik konning borligi, mahalliy aholining ko‘pchiligi ana shu yerda faoliyat ko‘rsatayotganligi unda yoshligidanoq konchilik kasbiga havas uyg‘otdi. 1983-yilda Toshkent politexnika institutining “Foydali qazilma qonlarini yopiq usulda qazib olish texnologiyasi va kompleks mexanizatsiyalash” yo‘nalishini tugatgan A.Ezozxonov qator yillar “Chodak” konida kon ustasi, “Oltinkon” ochiq aksiyadorlik jamiyati raisi, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” OAJ “Chodak” koni direktori, “Qalmoqqir” kon boshqarmasi ishlab chiqarish texnika bo‘limi boshlig‘i, 2008-yil dekabr oyidan NKMK Janubiy kon boshqarmasi bosh muhandisi, keyinchalik boshqarma direktori lavozimida faoliyat ko‘rsatdi.

Avazxon Ezozxonov Janubiy kon boshqarmasi bosh muhandisi, direktori lavozimlarida ishlaganida bor bilim va tajribasini kombinatning yirik bo‘linmasida yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishning barcha uchastkalarida rejalar muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlash yo‘lida safarbar etdi. U yetakchilik qilayotgan katta jamoaning hamjihatligi, iqtisodiy samaradorlikka erishish yo‘lidagi sa’y harakatlari o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatdi. Janubiy kon boshqarmasi tasarrufidagi korxonalar bir-biridan ancha uzoq masofada ekanligi bo‘linma ishlarini tashkil etish, boshqaruv va rahbarlikda ma’lum qiyinchiliklarni tug‘dirishiga qaramasdan mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshira borishga erishilgani diqqatga sazovordir. Shu o‘rinda fikrimizning isboti sifatida bir raqamni keltirib o‘tmoqchiman. Avazxon Ezozxonov Janubiy kon boshqarmasiga direktorlik qilgan 2009-2013-yillarda korxonada mahsulot ishlab chiqarish 2008-yildagiga taqqoslaganda qariyb besh baravarga oshgan, yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, 470,7 foizni tashkil etgan. Bu yuksak darajadagi o‘sishni ifoda etuvchi raqamlardir. Kon boshqarmasiga qarashli 4-gidrometallurgiya zavodi, “Zarmitan”, “Marjonbuloq” konlari joylashgan Zarkent qo‘rg‘oni va Marjonbuloq shahrida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Ayniqsa, Zarkent qo‘rg‘oni zamonaviy infratuzilmaga ega ko‘rkam qiyofa kasb etdi.

Avazxon Nezomxonovich so‘nggi yillarda “Auminzo-Amantoy” koni boshlig‘i sifatida bilim va tajribasi bilan konda yer osti boyliklarini izlab topish, portlatish ishlaridan tortib, qimmatbaho metallarni ajratib olishgacha bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlarida texnologik uskunalarning uzluksiz ishlashini ta’minlash, barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha rejalarning bajarilishiga katta hissa qo‘shib keldi. Malakali konchi, yoshlarning ustozi A. Ezozxonovning kombinat ravnaqi yo‘lidagi xizmatlari e’tirofga loyiqdir. Uning tashkilotchiligi, o‘z ustida qunt bilan ishlashi, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqarishda qo‘llanishi tufayli “Auminzo-Amantoy” oltin konini kengaytirish loyihasida belgilangan vazifa va topshiriqlar o‘z vaqtida uddalandi. Agarda kondan 2018-yilda 9 million 400 ming kubometr tog‘ jinsi qazib olingan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkich 50 million kubometrni tashkil etadi. Konda kumush ishlab chiqarish rejasi 2018-yilda – 126,3; 2019-yilda – 140,8; 2020-yilda – 157,8; 2021-yilda – 148,4; 2022-yilda – 135,2 foizga bajarildi.

“Auminzo-Amantoy” koni foydalanishga topshirilgandan buyon mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Ayni paytda konda ikki ming nafarga yaqin ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlar mehnat qilishyapti. Konga asosan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bitiruvchilari ishga qabul qilinib, ular “ustoz-shogird” an’anasiga muvofiq amaliy ko‘nikmalarini oshirib bormoqdalar.

Konda barpo etilgan, umumiy maydoni 9 gektar bo‘lgan ishchilar shaharchasida ishchi-xodimlar uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan. 2 ming 500 nafar kishiga mo‘ljallangan mazkur shaharcha hududida oshxona, muhandis-texnik xodimlar uchun 16 o‘ringa mo‘ljallangan 4 ta turarjoy binosi, ishchilar uchun 14 ta shinam yotoqxona foydalanishga topshirilgan. Shaharcha hududi ko‘kalamzorlashtirilib va obodonlashtirilib, ming tupga yaqin archa va gullar o‘tqazilgan.

Avazxon Ezozxonov rahbarligida hududdagi “Nuqrakon” karyerida ham jadal sur’atda boshlangan ishlar davom ettirilmoqda. Uyumda tanlab eritish texnologiyasi joriy qilingan sexda qayta ishlash asosida kumush bilan birga oltin, mis, temir va boshqa foydali qazilmalar ham olinmoqda.

Mehnatda erishgan yutuqlari uchun Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinatlari rahbariyati tomonidan munosib taqdirlangan Avazxon Nezomxonovich Ezozxonov aql-zakovati, bilimi, intellektual salohiyatini konchilik sohasi rivoji, qayerda ishlamasin, jamoasi oldiga qo‘yilgan barcha topshiriqlarni bajarish, istiqbolli investitsion loyihalarni o‘z vaqtida ro‘yobga chiqarish yo‘lida safarbar etib kelayapti.

Respublikamiz mustaqilligining 32 yilligi shodiyonasi Avazxon Ezozxonov uchun qo‘shaloq bayramga aylandi. U Prezidentimizning eng ulug‘, eng aziz bayramimiz arafasida e’lon qilingan Farmoniga muvofiq “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi. Avazxon Ezozxonov mehnatining shunday yuksak darajada e’tirof etilishi unga qanot bag‘ishlab, yanada samariliroq ishlashga ruhlantirishi aniq.

# TASHVISHLARDA BORDEK HALOVAT

**Tashvish va mashaqqatlar, aniqrog‘i ularni hal etishdan halovat topadigan insonlar bo‘ladi. Mutlaqo oson bo‘lmagan bu ish odamdan qat’iyatlilik, qiyinchiliklardan cho‘chimaslik, o‘ziga ishonchni talab etadi. Bunday fazilatlar insonga tabiatan berilgan bo‘lishi kerak. “NKMK” AJ 3-avtokorxonasi boshlig‘i Rashit Tursunovning amaliy faoliyatiga nazar solish uni shunday fazilatlar sohibi degan xulosaga olib kelishi tabiiy.**



Rashit Raxmonovich kasbi nuqtai-nazaridan avtomobil transporti muhandisi. Mehnat faoliyati ham tanlagan sohasiga bevosita aloqador. U Toshkent avtomobil yo‘llari institutini bitirgach, to‘rt yil Zarafshon qurilish boshqarmasida uchastka mexanigi bo‘lib ishladi. Rashit Tursunov Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo‘linmalari transport korxonalarida o‘tayotgan so‘nggi yigirma yillik faoliyatida o‘zining yuksak tashkilotchilik va mas’uliyatlilik fazilatlarini to‘la namoyon etib kelyapti. Uning bir qarashda transport sohasiga aloqasi yo‘q, ammo muhim bo‘lgan topshiriqlarni bajarishdagi fidoiyligi, belgilangan vazifani ado etmagunicha tinib-tinchimasligi haqida kombinat bosh direktori Quvondiq Sanaqulov katta yig‘inlarda iliq fikrlar bildirganiga guvoh bo‘lganman. Bunga qo‘shimcha qilishga hojat yo‘q. Bir misol. Bosh direktor kombinat xodimlari kasaba uyushmasining “Farhod” madaniyat saroyida bo‘lib o‘tayotgan konferensiyasida saroyning sovitish tizimi ishlamayotganligini payqab, Rashit Raxmonovichga murojaat qildi hamda mutaxassislar bilan birgalikda uning sabablarini topish va nosozlikni tuzatish topshirig‘ini berdi. Quvondiq Sanaqulovich bu ishni R. Tursunovga topshirishi bejizga emas. Aslida bu hol bosh direktorning Rashit Raxmonovichga ishonchining nishonasi edi. Oradan ko‘p o‘tmay Q. Sanaqulov bilan bo‘lgan suhbatimizda Rashit Raxmonovich zudlik bilan topshiriq ijrosiga kirishganligi va “Farhod” madaniyat saroyi sovutish tizimidagi nosozlik hal etilganligidan xabardor bo‘ldim.

Darvoqe, kombinat miqyosidagi turli vazifalarni bajarishga boshchilik qilish R. Tursunovga yuklanadi. O‘quvchilarimiz 2008-yilda Kogon shahri yaqinidagi, sobiq Ittifoq davrida harbiy ombor bo‘lgan hududda ro‘y bergan portlashni yaxshi eslaydilar. Kombinatning Rashit Raxmonovich bosh bo‘lgan transportchilar va boshqa kasb egalaridan tashkil topgan jamoasi hududda tozalash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etdi. Xavf-xatarli favqulodda vaziyatda R. Tursunov shaxsiy namuna ko‘rsatdi.

Ma’lumki, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi qurilishi davlat ahamiyatiga molik obyekt edi. Qurilishni jadal sur’atlarda olib borish talab etilardi. Vaziyat taqozosidan kelib chiqib, Rashit Tursunov boshliq 3-avtokorxona jamoasi oldiga juda qisqa muddatda 5 million dona g‘ishtni Qiziltepa g‘isht zavodidan “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi obyektlariga tashib berish vazifasi qo‘yildi. Rashit Raxmonovichning qat’iy nazorati, vaqt bilan hisoblashmay ishlashi tufayli jamoa bu vazifani ham uddasidan chiqdi.

2009-yilda Shimoliy kon boshqarmasi Avtomobil transporti boshqarmasida murakkab vaziyat vujudga kelgan, ma’dan tashish rejasi bajarilmas, yonilg‘i-moylash mahsulotlarini talon-taroj qilishga yo‘l qo‘yilayotgan edi. Kombinat rahbariyati bunday noxush holatni bartaraf etish uchun 3-avtokorxona boshlig‘i lavozimida ishlayotgan R. Tursunovni xizmat safari bilan mazkur Avtomobil boshqarmasiga jo‘natadi. Vazifaning o‘ta mas’uliyatli ekanligini anglab yetgan Rashit Raxmonovich avtokorxonaga 3-avtokorxona texnika vositalaridan foydalanish bo‘limi boshlig‘i Ikrom Ismoilov, harakat xavfsizligi muhandisi Ne’mat Hamidov, avtogaraj mudiri Ne’mat Muratov, murabbiy-haydovchi Ahmad Ro‘ziyev va yana ikki nafar tajribali haydovchilarni birga olib boradi. O‘sha kezlari Avtomobil transporti boshqarmasida bo‘lib, R. Tursunov va olti nafar safdoshlarining mashaqqatli ishlari bilan tanishgandim. Ular qattiq ishlashiga, ba’zan mashina yoki ish kabinetida uxlashiga ham to‘g‘ri kelgan. Muhimi, hech kim bu holdan nolimagan. Natijada Avtomobil transporti boshqarmasida talon-tarojliklarning oldi olinib, rejalar bajarila boshlandi. Oradan ko‘p o‘tmay nafaqat ATB, balki butun SHKB transport tizimida tartib o‘rnatish maqsadida R. Tursunov Shimoliy kon boshqarmasi direktorining transport bo‘yicha o‘rinbosarligiga tayinlanadi.

Rashit Raxmonovichning tarjimai holida uning bir muddat Janubiy kon boshqarmasi direktorining transport bo‘yicha o‘rinborasi, Navoiy kon-metallurgiya kombinati Uy-joy kommunal boshqarmasi boshlig‘i, 5-kon boshqarmasiga qarashli 6-sonli avtokorxona boshlig‘i lavozimlarida ishlaganligi haqidagi yozuvlar bor. Aslida R. Tursunov bu bo‘linmalarga ham ishni yaxshilash uchun yo‘llanganligi sir emas. Rashit Raxmonovich uch marta o‘zi uchun qadrdon bo‘lib qolgan 3-sonli avtokorxona boshliqligidan boshqa ishga o‘tib ishladi, kombinat rahbariyatining ishonchini oqladi.

Hayotning yozilmagan qonunlari bor va u sinovlarga to‘la. 2020-yilda Sirdaryo viloyatining Sardoba suv omborida ro‘y bergan toshqin butun xalqimiz irodasi, hamjihatligini sinovdan o‘tkazdi. Respublika rahbariyatining tashabbusi, dono ko‘rsatmasi bilan yurtimizning barcha viloyatlari vakillari toshqin oqibatlarini bartaraf etish, ofatdan zarar ko‘rgan jabrdiydalarga yordam ko‘rsatishga chog‘landi. Qisqa vaqtda toshqin asoratlari tugatildi, ofat ro‘y bergan hududda zamonaviy infratuzilmaga ega shaharcha barpo etildi, odamlarning baxtiyor va osuda hayoti boshlandi. Hamisha bo‘lganidek, Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi toshqin asoratlarini tugatish uchun transport va texnika vositalari, qurilish materiallari, malakali quruvchilar va boshqa kasb egalaridan iborat ko‘makni tashkil etdi. Rashit Raxmonovich bir oy davomida toshqin oqibatlarini tugatish, yo‘l, ko‘priklar, turar joy binolari qurilishiga safarbar etilgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasiga bosh bo‘ldi. U mashaqqatlarda toblanganligini namoyon etdi, hayotning yana bir sinovidan muvaffaqiyatli o‘tdi. Bugungi kunda Rashit Tursunov boshchilik qilayotgan 3-avtokorxona jamoasi barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha rejalarni bajaryapti.

**Nizomiddin SADRIDDINOV,
“Konchilar hayoti” gazetasi muharriri.**



## Qizilqum

*Kecha bu sahrolar bo‘lgan yovvoyi,
Qush uchsa qanoti kuyganligi rost.
Ammo, orzu qilgan hazrat Navoiy,
El ishqin qalbiga tuyganligi rost.*

*Odam yursa kuygan oyoq va badan,
Qancha metallurug va qancha konchilar-
Qip-qizil sahroda topganda ma’dan,
Rizqini tergan so‘ng saxiy nonchilar.*

*Oltmish besh yil avval tush edi go‘yo,
Bir nido keladi Yerning qa’ridan.
Sahro mo‘jizasin tan oldi dunyo,
Oltintoparlarning tillo, zaridan.*

*Xushbo‘y nasimi bor havolarida,
Qizilqum ahliga shu zamin Makka.
Farrux Zokirovning navolarida,
Uchquduqning madhi singgan yurakka.*

*Bugun bulbullar ham ko‘z ochib sahar,
So‘lim bog‘lar ichra sayrar sharaf, shon.
Yetti uxlab tushga kirmagan shahar,
Sahro mo‘jizasi boqiy Zarafshon.*

*Axir, suv keltirgan savob deydilar,
Hali ochilmagan qancha konlaring.
Ko‘o‘o‘p millat o‘zbekning to‘nin kiydilar,
Sanaqulov kabi Qahramonlaring.*

*Farhod, Majnunlaring bilagida kuch,
Qizlaring misoli Layli va Shirin.
Mening bag‘rim osmon oq qush bo‘lib uch,
Shaxtiyorlaring ochar Yer osti sirin.*

*O‘zbek, rus, qozoq va qoraqalpog‘im,
Et bilan tirnoqdek mustahkam qardosh.
Kiysa yarashadi biram qalpog‘im,
Saraton taftiga beradi bardosh.*

*Shu dala, shu kenglik, shu tuproq, shu qum,
Vujudim ichinda jonim ila tan.
Menga oq sut bergan onam, Qizilqum,
Kel, seni boshimda ko‘taray, Vatan!*

**Boboqand MIRZO**

## Yangi O‘zbekiston konchilariga!

*Yoritay deb yer yuzini
ko‘kda quyosh nur sochadi.
Zamin qa’ri ko‘kdan yorug‘:
javohiru dur sochadi.
O‘ylab Vatan xazinasin
hamda xalqning rizq-ro‘zini,
Bunda yurtning botirlari
kon ochadi, kon ochadi!*

*Misli Qoran – toshni yo‘nib,
har shogirdga imdod etar.
Farhod kabi tog‘ ko‘ksini
yorib, cho‘lni obod etar.
Yer qa’ridan ma’dan izlab,
kashf etib necha konlarni,
Suqrot kabi el boshini,
har mushkuldan ozod etar.*

*Ular Boniy – zarra qumning
qadrin bilgan buyuk me’mor.
Ular Moniy – dil toshiga
naqsh solgan zo‘r san’atkor.
Muruntovu Dovg‘iztovni
Vatan ichra Vatan bilgay,
Hur O‘zbekiston ko‘ksiga
tillolardan taqar tumor.*

*Har birlari – ulug‘ Hazrat
orzulagan komil inson.
Naqshbanddek qo‘lida kor,
tilda zikr, dilda iymon.
Ilm-fanu ma’naviyat –
yo‘llarida mangu mayoq.
Kuch-qudratin kuylasam gar,
“Alpomish”dek bo‘lar doston.*

*Har birlari – Beruniyning
avlodlari, salaflari.
Dengiz ortin lol qoldirar –
oltinlaru sadaflari.
Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin,
NKMK konchilari!
Bugun sizga bo‘lsin xalqning
olqishlari, sharaflari!*

**Ra’no FAYZULLAYEVA.**

■ 12 noyabr – Tibbiyot xodimlari kuni

**Tibbiyot xodimlari bemorlarni nafaqat dori-darmon, balki shirin so‘z, qaynoq mehr bilan darddan forig‘ etishga intiladilar. Shu boisdan xalqimiz ularni muqaddas qasamyodiga sodiq insonlar sifatida biladi va mashaqqatli mehnatlarini yuksak qadrlaydi. Inson dardga chalinganda, xastalik xurujlarida, avvalo, shu kasb egalaridan najot kutadi va dardlariga shifo istaydi...**

# TAJRIBALI QAMSHIRA



“Maktabda a’lo baholarga o‘qir edim, ayniqsa tarix faniga juda qiziqardim, orzuyim yurist bo‘lish edi. Lekin orzular hamma vaqt ham amalga oshavermas ekan. Dadamning da’vatlari bilan hujjatlarimni Navoiy tibbiyot bilim yurtining kechki bo‘limiga topshirdim. U yerda L.Karvegova, X.Fayziyeva, Yu.Baratova, A.To‘qsanov, F.Xadjayev, A.Sidiqov, N.Suvonov, K.Qo‘chqorov kabi ustozlardan bilim olib, tibbiyot sirlarini o‘rgandim”, – deydi Z.Hakimova.

Kechki bo‘limda o‘qigani sabab Zeboxon ishga ham kiradi va ish faoliyatini Navoiy viloyati onkologik dispanserida kichik tibbiyot xodimligidan boshlaydi. Keyinchalik NKMK Tibbiy-sanitariya bo‘limi tug‘uruq bo‘limi kichik tibbiyot xodimi, ko‘p tarmoqli jarrohlik bo‘limi hamshirasi sifatida kasbida tajriba to‘plagan Z.Hakimova hozirgi kunda jarrohlik bloki oliy toifali katta hamshirasi bo‘lib ishlamoqda. Uning ishi nafaqat jarrohlik amaliyotida qatnashish, balki ana shu mas’uliyatli jarayongacha bo‘lgan ishlarni tashkil qilishdan ham iboratdir.

So‘nggi yillarda TSB, jumladan, jarrohlik bo‘limi ham zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta’minlanishiga katta e’tibor berilmoqda. Bo‘lim barcha turdagi jarrohlik amaliyotlari uchun zarur yuqori texnologik asbob-uskunalar – laparoskopik moslama, plazmalik koagulyator, operatsiya jarayonida rentgen qilish uskunasi, soyasiz chiroq, narkoz apparati bilan jihozlandi. Bu esa ancha murakkab bo‘lgan jarrohlik, urologik, neyrojarrohlik, travmatologik, onkologik amaliyotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishda qo‘l kelmoqda. Shuningdek, o‘zaro tajriba almashish maqsadida Toshkent shahri va MDH davlatlaridan mutaxassislar taklif etilib, mahorat darslari o‘tkazilmoqda, hamkorlikda jarrohlik amaliyotlari amalga oshirilyapti. Jarrohlik bo‘limida uzoq yillardan beri ishlab kelayotgan Zeboxon A.Zuboreva, V.Malanin, O.Djurayev, A. Nurunbetov, S.Kazakova, L.Domnina, L. Barikova kabi ustozlarining nomlarini hurmat bilan tilga oladi. Jarrohlik blokida 10 nafar, postda esa 15 nafar hamshira ishlaydi. Har kuni rejalashtirilgan va rejadan tashqari 5-6 ta jarrohlik amaliyoti o‘tkaziladi. Blokdagi hamshiralar jarrohlik amaliyotida qatnashishsa, postdagilar bemorlarni tayyorlash va jarrohlik amaliyotidan keyingi reabilitatsiya jarayonida ularning sog‘ayishiga ko‘maklashishadi. Ish jarayonida nazariy bilim, sohadagi yangiliklardan chuqurroq xabardor bo‘lish ham muhimdir. Hamshiralar O‘zbekiston Respublikasi o‘rta tibbiyot va dorishunos xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Navoiy filialida har besh yilda kasbiy malakalarini oshirib borishadi. Jarrohlik bo‘limining M.Narzullayeva, G.Qodirova, G.Narzullayeva kabi kichik tibbiy xodimlari bo‘limda ideal darajadagi tozalikni ta’minlashdek vazifani vijdonan bajarishmoqda.

Zebo Hakimovaning hamshiralik sohasidagi mehnatlari munosib baholanib, bir necha marotaba Faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Uning Samarqand davlat tibbiyot universitetini tamomlab, o‘qishini oftalmologiya yo‘nalishida davom ettirayotgan yagona farzandi Azizaxon yaqinda tibbiyot xodimlari oilasiga kelin bo‘lib tushdi. Demak, shifokorlar oilasi yana bir nafarga ko‘paydi. Z.Hakimova qizi shifokorlik kasbini tanlaganidan mamnun bo‘lib, taqdiriga shukronalar aytadi.

**A.AKBAROVA,**
**Matbuot markazi muxbiri.**

# RAHMAT SIZGA SHIFOKORLAR!

**Dunyoda kasblar ko‘p va ulardan har birining insonlar turmushida o‘z o‘rni bor. Shifokorlik kasbining ahamiyati haqida gapirib o‘tirishga hojat bo‘lmasa kerak. Bu kasb egalari odamlarning bebaho boyligi bo‘lgan sog‘liklarini muhofaza qilishadi. Shifokorlik kasbi g‘oyatda sharafli ekanligining asosiy siri ham shunda.**

Yaqinda qon bosimim oshib, o‘zimni yomon his qila boshladim. Tibbiy-sanitariya bo‘limi poliklinikasi terapevt-vrachi Baxtigul Utemuratova ahvolimni tekshirib ko‘rib, zudlik bilan davolanishim kerakligini aytdi va menga maxsus davolash bo‘limiga yo‘llanma berdi.

TSBning maxsus davolash bo‘limida meni ochiq chehra bilan qabul qilishdi. Bir necha kungi davolanishdan so‘ng, dardimga shifo topdim. Sog‘ayib oilam bag‘riga qaytdim. Bugungi kunda jamoam safida mehnat faoliyatimni davom ettiryapman. Maxsus davolash bo‘limi mudiri, tajribali vrach Shuhrat Sa’dulloyev, katta hamshira Zarina Toirova, hamshira Sayyora Muitova, xo‘jalik bekasi Oynisa Mamatqulova hamda poliklinika vrachi Baxtigul Utemuratovalarga kasb bayramlari nishonlanayotgan kunlarda cheksiz minnatdorlik bildiraman hamda “Rahmat sizga, aziz shifokorlar!” deyman.

**Dilshoda MIRZAYEVA,**
**TSB ginekologiya-akusherlik bo‘limi kichik tibbiy xodimi.**

# Ustoz

Oxiri. Boshlanishi 6-betda

Istiqlolning o‘n yilliklaridan keyingina Shimoliy kon boshqarmasida inson hayotining muqaddimasidan intihosiga qadar jarayonda zarur bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga keng yo‘l berila boshlandi. O‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat, milliy va diniy bag‘rikenglik tushunchalarini anglashga hali hamma xodim ham tayyor emasdi. Davlat tili o‘zbek tili bo‘lishiga qaramay, rus tiliga no‘noq oliy ma’lumotli milliy kadrlar til bilan bog‘liq masalalar sabab qimtinib ishlayotgan davrlarda Shimoliy kon boshqarmasining ko‘pmillatli jamoasiga shijoatli, o‘zbek va rus tillarida ravon so‘zlasha oladigan, samimiy va xushsurat o‘zbek ayoli kirib keldi.

Buxoro viloyati Shofirkon tumanida ziyoli va ma’rifatli oilada tug‘ilgan Santalyat Niyazmetova Karmana shahrida maktab sabog‘ini oldi. Maktabni tamomlab, Toshkent politexnika institutiga “Muhandis-quruvchi” ixtisosligi bo‘yicha o‘qishga kirdi. 1970-yilda o‘qishni tamomlab, besh yil Toshkentda “Sredazniirotsvetmet”ning Issiqliq texnologiyasi bo‘limida yetakchi muhandis bo‘lib ishladi. Turmush o‘rtog‘ining mehnat faoliyati Qashqadaryo viloyati Qarshi shahriga ko‘chirilgani munosabati bilan 1975-yildan Santalyat Niyazmetovaning hayot yo‘llari voha kengliklariga bog‘lanadi. Chorak asr Qarshining ko‘zga ko‘ringan korxonalarida mas’uliyatli lavozimlarda mehnat qildi. 2000-yildan 2016-yilga qadar Shimoliy kon boshqarmasida ma’naviy-ma’rifiy masalalar bo‘yicha faoliyat olib bordi.

Bundan yigirma yillar avval Uchquduqning qariyb barcha aholisi Shimoliy kon boshqarmasida mehnat qilar, texnik-texnologik jabhalar bilan o‘ralashib qolgan, faqat buguni bilan yashayotgan aholini uyg‘otmoq, fuqarolik va farzandlik burchini eslatmoq, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan ogoh etish va Vatan taqdiriga daxldorlik xislarini shakllantirmoq uchun Santalyat Niyazmetovadek uyg‘oqqalb ustozlar zarur edi. Soniya sari yangilik uzatib turuvchi ijtimoiy tarmoq iborasi tamoman mavjud bo‘lmagan davrda ustoz hayotiy tajribasidan, milliy ruhiyatidan kelib chiqqan holda, shuningdek, kitob, gazeta va jurnallarga, ma’naviyatiga tayangan holda katta jamoadagi o‘tmish ruhiyatini yangilay oldi. Ustoz qayerda bo‘lmasin, u kirgan davraga fayz va ma’rifat indi, ko‘pmillatli jamoadagi ishchi-xodimlar uning samimiyligi va yakdilligi uchun o‘z millatdoshidek qabul qilishdi. Uning suhbatlarini, siyosiy-ijtimoiy yo‘nalishdagi targ‘ibotlarini qiziqish va hurmat bilan eshitdilar. Ustozning targ‘iboti bir xillikda kechayotgan umrning sarhisobini qilib, Vatan ertasi uchun qayg‘urishga, shukrona va milliy o‘zlikni anglashga, milliy g‘urur va bag‘rikenglik g‘oyalarini uyg‘otishga turtki bo‘ldi. Mana yetti yildirki, ustoz keksalik gashtini surmoqdalar. Shimoliy kon boshqarmasi xodimlari ma’rifatli o‘zbek ayoli siymosida Santalyat Niyazmetovani ko‘radilar. Shijoatlariga Qizilqum kengliklari torlik qiladigan ustozim Shimoliy kon boshqarmasida milliy kadr sifatida millatimizning ma’naviy-ma’rifiy xazinasi, qadimiy an’analari, boy tarixi targ‘iboti bilan shug‘ullangan birinchi o‘zbek ayolidir!

Odam qirqda bir ortga qayrilib olarkan. Bu qayrilish avvalgilariga o‘xshamas, tarixga aylanayotgan umrning hisobi – musbatu manfiysini bu safar tafakkur tarozisining og‘ir va zalvorli o‘y-toshlari bilan o‘lcharkan kishi. Yaxshilarning qoya uchida titrab turgan na’matakdek omonat ekanini tushunib qolarkansan kishi. Bugun konchilik va metallurgiya sohasi to‘g‘risida ilmim zarra qadar bo‘lsa-da, tasavvurlarim mavjud. Va ushbu mavjudlik ortida Santalyat Niyazmetovadek ustozimning mehnatlari, nasihatlari mujassam. Hayot chiziqlarimda borligingiz uchun rahmat, ustoz!

**Nilufar MUYDINOVA,**
**ShKB Axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhi mutaxassisi.**

# KOMBINAT MENING HAYOTIMDA

**Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga mehrim rahmatli bobom Ataniyaz Ataniyazov orqali uyg‘ongan. Bobom NKMK Shimoliy kon boshqarmasi 1-sonli avtobazada GAZ-53 rusumli yuk avtomobili haydovchisi edilar. O‘sha paytlari bobom uyga tushlik qilish uchun kelganlarida, men ovqatimni yeb bo‘lar-bo‘lmas bobomning mashinalari ruliga o‘tirishga oshiqardim.**



Bobom mashinasini hamisha toza-ozoda saqlashga urinardilar, unga shu qadar mehr berganlaridan, mashina bo‘yoqlari xuddi kecha sepilgandek yaraqlardi. O‘quvchilik paytlarimiz ona tili darsida “Men katta bo‘lsam...” mavzusidagi erkin insho tanlovida sinfdoshlarimning biri kosmonavt, ikkinchisi bank xodimi, yana biri shifokor bo‘lishga ishtiyoqlarini yozishgan bo‘lsa, men bobomga havas qilib haydovchilik kasbini tanlashimni yozgandim.

Ulg‘aygach, 2016-yili tahsil olayotganim Uchquduq qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi kasb-hunar kollejidan diplomoldi amaliyotini o‘tash uchun Shimoliy kon boshqarmasi Avtomobil transporti boshqarmasiga yuborildim. Boshqarmada kechgan birinchi kunim balandligi uch qavatli uydek, haybatli avtoag‘dargichlarni ko‘rib, hayrat va hayajonlarga boy bo‘ldi. Kollejni tamomlab, ishga qabul yo‘llanmasini qo‘limga olarkanman, taqdir mehnat faoliyatimni yana Avtomobil transporti boshqarmasi bilan bog‘ladi. Ushbu tashkilotda men tabelchi vazifasida ish boshladim. Bobomdek haydovchi bo‘lmagan bo‘lsam-da, avvallari men uchun noma’lum bo‘lgan texnikalarning mo‘jizaviy olamida faoliyat olib borardim. Go‘yoki qoyatoshlar oralab ulkan dinozavrlar balandlik sari sekin-asta sudralib chiqayotgandek, avtoag‘dargichlar ham kon massasini ana shunday tashirdi. Ilgarilari faqat rasmlardagina ko‘rganim texnikalar men faoliyat olib borayotgan korxonada borligi va ular haqida o‘rtoqlarimga aytib berishim bilan atrofimda tengdoshlarim yig‘ilib qolar, ular menga hayrat va havas bilan boqishardi. O‘sha yili oilamga olib kelgan birinchi maoshim kechagidek yodimda, onam va singlimning quvonchi olamga sig‘mas edi.

Kombinat mening hayotimda burilish yasadi. Yurtboshimizning oqilona siyosatlari va yoshlarga bo‘lgan ishonchlari, kombinat rahbariyati ijtimoiy masalalarni hal qilishni birinchi o‘ringa qo‘yishi tufayli turmush tarzimiz yildan-yilga yaxshilanmoqda. 2019 yilgacha oilamiz bilan ijarada yashab kelgan bo‘lsak, endilikda tumanimizda qad ko‘targan namunaviy xonadonlardan birining sohibi bo‘ldik. Ham ishlab, ham oliy ma’lumotli bo‘lish maqsadida 2022-yilda Namangan muhandislik texnologiyalari institutining sanoat texnologiyalari konstruksiyasi yo‘nalishi bo‘yicha sirtqi bo‘lim talabasi bo‘ldim.

Men faoliyat olib borgan yetti yilda korxonada katta o‘zgarishlar bo‘ldi, salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ilgarilari tuman markazidan 35 kilometr uzoqlikdagi Avtomobil transporti boshqarmasiga qishning sovug‘i, yozning jazirama issig‘ida eski avtobuslarda borib kelgan bo‘lsak, so‘nggi yillarda barcha qulayliklarga ega, saloni qishda issiq, yozda salqin turuvchi yangi avtobuslarda borib kelmoqdamiz. Texnikalar ochiq maydonda ta’mirlanganidan quyoshning nurida toblangan qismlari qo‘lingizni kuydiradigan darajada bo‘lardi. Hozirda ta’mirlash ishlari yopiq, barcha shart-sharoitlarga ega binolarda olib borilmoqda. Og‘irligi 1,5 tonna keluvchi avtoshinalarni ta’mirlash uchun NMZ-200 uskunasi va TIP-TOP anjomlar jamlanmasi, avtoag‘dargich haydovchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun mo‘ljallangan 16 o‘rinli zamonaviy o‘quv xonasi va mashq simulyatori, texnikalarning ulkan ehtiyot qismlarini tez va oson yechib olish va qayta o‘rnatuvchi, 32 va 16 tonna yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega kranlar o‘rnatildi. Haydovchilar dunyo tan olgan Caterpillar, Komatsu va BelAZ brendlari ostida ishlab chiqarilgan avtoag‘dargichlarni boshqarishmoqda.

Hozirgi kunda kon boshqarmasi Axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhida ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha inspektor lavozimida faoliyat yuritib kelmoqdaman. Qilgan mehnatlarim samarasi ortidan bir necha bor rahbariyatning Tashakkurnomasi va Faxriy yorliqlari bilan taqdirlandim.

Men kombinatdek ulkan oilaning a’zosi ekanimdan baxtiyorman. Rafiqamni ham Avtomobil transporti boshqarmasida uchratdim. U boshqarmada balandligi 20 metr, uzunligi 100 metr, yuk ko‘tarish quvvati 32 tonna bo‘lgan kran mashinisti. Endigina bir yoshga to‘lgan o‘g‘limda ham transportga qiziqish uyg‘ongan. O‘yinchoqlar orasidan faqat avtoag‘dargich yoki ekskavatorni tanlaydi. O‘g‘lim ham ulg‘aygach, yurtimiz, kombinatimiz kelajagi uchun o‘z hissasini qo‘shadigan kadr bo‘lishiga umid qilaman.

**Agabek ATANIYAZOV,**
**SHKB Axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhi inspektori.**

■ “Navoiyuran” davlat korxonasida

# GERMANIYA TAJRIBASI O‘RGANILDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi “2022-2030-yillarda “Navoiyuran” davlat korxonasida uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformasiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 319-sonli qarorida korxonani transformasiya qilish hamda xalqaro talablarga muvofiq ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan vazifalarga muvofiq “Navoiyuran” DKning bir guruh mas’ul rahbarlari Germaniya davlatida xizmat safarida bo‘lishdi.**

Tashrif davomida delegasiya vakillari Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG - Environment, social and governance) hamda GRI (Global Reporting Initiative) va Barqaror rivojlanish hisoboti bo‘yicha seminar- treninglarda ishtirok etishdi. Mehnat amaliyotini takomillashtirish strategiyalari Jamiyatning ishtiroki va ta’siri, ESGning biznesdagi ahamiyati, sanoatdagi, asosiy ESG muammolari, ESG va biznes samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik, ISO 14001 Ekologik menejment, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish strategiyalari, chiqindilarni va suvdan foydalanishni boshqarish, asosiy ijtimoiy omillar va xavflarni aniqlash, ta’minot zanjirida inson huquqlari muammolarini hal qilish, mehnat amaliyotini takomillashtirish strategiyalari, hisobot va oshkor qilish strategiyasini ishlab chiqish, ESG samaradorligini manfaatdor tomonlarga yetkazishning eng yaxshi amaliyotlari, ESG ishlashi va reytinglarini yaxshilash bo‘yicha harakatlar rejasini yaratish kabi mavzularda bilim va ko‘nikmalarini oshirdilar.

Seminarning maqsadi ishtirokchilarga ESG reytinglarini yaxshilash va yanada barqaror kelajakka hissa qo‘shish uchun ESG amaliyotlarini o‘zlarining biznes operasiyalariga qanday integrasiya qilish haqida keng qamrovli tushuncha berishdan iborat.

– Biz ESG va biznes operatsiyalarda ESG yechimlarini tatbiq etishning amaliy strategiyalari haqida keng qamrovli tushunchaga ega bo‘ldik, - deydi “Navoiyuran” DK 6-Birlashgan kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi D.Temirov. - ESG reytinglaridagi so‘nggi tendensiyalar va ishlanmalar haqida va hisobot berish va oshkor qilishning eng yaxshi amaliyotlari haqida ma’lumot oldik.

Shuningdek, GRI va Barqaror rivojlanish hisoboti bo‘yicha ham seminar-treninglar o‘tkazildi. Trening davomida korxona vakillari Barqarorlikning asosiy tushunchalari va atrof-muhit, Ijtimoiy va Boshqaruv (ESG) maqsadlarini biznes amaliyotiga integratsiyalashning ahamiyati, Global Reporting Initiative (GRI) ning Barqarorlik hisobotida tutgan o‘rni, GRI standartlarining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, ularning tuzilishi, toifalari va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) muvofiqligi, Barqarorlik ma’lumotlarini to‘plash, hisoblash va hisobot berish jarayoni, jumladan, neft va gaz, ko‘mir, qishloq xo‘jaligi va emissiya kabi sohalarda atrof-muhit hisoboti uchun maxsus standartlar va ko‘rsatmalar kabi o‘ndan ortiq mavzularda nazariy va amaliy seminarlarda ishtirok etishdi.

Delegasiya Germaniyaning bir qancha shaharlarida bo‘lib, yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

– Tashrif dasturiga asosan delegatsiyamiz vakillari guruhlarga bo‘lingan holda bir qator kompaniyalarning ESG bo‘yicha hisobotlarini o‘rgandik, kompaniyalar faoliyati bilan bog‘liq nazariy bilimlarga ega bo‘ldik. Seminar-treningning nazariy qismida olingan ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida Bremen (Bremen) shahridagi Airbus kompaniyasi, Volsfburg (Wolfsburg) shahridagi Volkswagen avtokonserni va Velzov (Welzow) shahrida joylashgan ko‘mir qazib olish karyerlari faoliyati bilan tanishdik. Xususan, qazib olish jarayonlari to‘xtatilgan karyerlarning rekultivasiya jarayonlari, korxonaning atrof muhitga va aholiga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni o‘rgandik, - deydi “Navoiyuran” DK bosh buxgalteri A.Adizov.

Seminar-treninglar yakunida ishtirokchilarga TUV Rheinland Akademie’da qatnashganligi va barcha mavzularni o‘zlashtirgani bo‘yicha sertifikatlar berildi.

**“Navoiyuran” DK axborot xizmati.**

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS:
“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.

Muharrir: **Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

**Tahririyat manzili:** 210100. Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy, “NKMK” AJ boshqarmasi
**Telefonlar:** Muharrir: 79 227-74-64. Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg‘armasi” DM bo‘linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo‘yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Adiba AXMEDOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog‘oz bichimi A2. 10800 nusxada chop etildi. Buyurtma № 615. 2023-yil 14-noyabr 11:00 da chop etishga topshirildi.